

MUNOSABAT

“BUNDA BOR HARORAT, MUHABBAT, SHAFQAT...”

MUHTASHAM OLTI YUZ YIL

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 14-avgust kuni imzolagan farmonini oʻqib, akademik shoirimiz Gʻafur Gʻulomning “Sen yetim emassan” sheʼrini yana bir bor mutolaa qilish ehtiyoji tugʻildi. “Oʻzbekistondagi bir guruh falastinlik fuqarolarga davlat gʻamxoʻrligi, mehr-shafqat tamoyillari asosida koʻmak berish tizimini yoʻlga qoʻyish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi ushbu farmon haqiqiy insonparvarlik siyosatining amaldagi ifodasidir.

Shoir iborasi bilan aytganda, “Quyoshday mehribon Vatan”imiz barcha davrlarda oʻz bagʻrikengligi, mehr-shafqati va insonparvarlik anʼanalariga sodiq qolib, muhtojlarga qoʻl choʻzgan, ehtiyojmandlarga yordam koʻrsatgan. “Zaminday vazmin-u mehnatkash, mushfiq” xalqimiz esa inson hayoti, shaʼni va qadr-qimmatini ulugʻlashga qaratilgan ezgu tashabbuslarga mehr bilan yondashib, ularni betaʼma-yu betaʼna qoʻllab-quvvatlab kelgan.

Ikkinchi Jahon urushi davrida yurtimizga 1 million nafardan ortiq kishi koʻchirib keltirildi. Ularning 200 mingdan ortigʻi bolalar edi. Xalqimiz ularga boshpana berib, soʻnggi burda nonini ham baham koʻrdi, ota-onasidan ajralgan bolalarni oʻz farzandidek tarbiyasiga olib, butun dunyoga haqiqiy insonparvarlik namunasini koʻrsatdi.

“BIR OGʻIZ SHIRIN SOʻZ NONDEK ARZANDA...”
Konstitutsiyamizning 17-moddasiga koʻra, “Oʻzbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umumeʼtirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi”.

Oʻzbekiston ichki va tashqi siyosatida ushbu prinsiplarga ogʻishmay amal qilib kelinmoqda. Shu bilan birga, jahon ayvonida roʻy berayotgan muhim masalalarga munosabat bildirilib, global muammolar yechimiga doir ilgʻor tashabbuslar ilgari surilmoqda.

(Davomi 3-sahifada.)

TAQDIMOT

Bashar tarixidagi eng mumtoz, viqorli, shu bilan birga, gʻoyat sirli shaxslardan biri – buyuk Amir Temurdir. Ayni shu xususiyatlariga koʻra Sohibqiron yuragini, botiniy olamini har kimga ham ochmaydi – garchi ul zot xususida dunyoda yuzlab, balki minglab tadqiqot va romanlar, yodnoma va dramalar yaratilgan boʻlsa-da, aksariyat hollarda ulugʻ ajdodimizning qalb daftari yopiqligicha qoladi.

Chindan ham, oʻz zamonida yigirma olti mamlakatni birlashtirib, oʻtmishdagi buyuk saltanatlaridan birini barpo etgan, uzoq umri davomida olib borgan oʻnlab muhorabalarining bironasida yengilmagan bu muzaffar sarkarda qiyofasini, uning tafakkur va ruhiyat olamini bugungi kun idroki bilan qayta kashf qilish ijodkordan juda katta masʼuliyat, bilim va isteʼdod talab etadi. Shuning uchun ham hazrati Sohibqiron haqidagi har qanday yangi asar biz – avlodlar tomonidan zoʻr eʼtibor va qiziqish bilan kutib olinishi tabiiy.

Kuni kecha “Renessans” kino uyida jamoatchilik koʻrigi oʻtkazilgan “Ulugʻ Amir va donna Mariya” nomli muazzam badiiy filmni tomosha qilar ekanmiz, avvalo, bu asar Temurbek bobomizning badiiy siymosini yaratish yoʻlida



katta bir epik qadam boʻlganini qayd etish lozim.

Ushbu mahobatli kinopolotno muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida ishlab chiqilib, amalga oshirilayotgan megaloyiha – “Tirik tarix” dasturining ilk namunalaridan biridir.

Yozuvchi Xayriddin Sulton qalamiga mansub ssenariy asosida kinorejssyor Yolqin Toʻychiyev tomonidan yaratilgan film real tarixiy voqealar zaminiga

qurilgan. Ayni vaqtda asar gʻoyat murakkab mavzuning oʻziga xos majoziy-shartli talqini va zamonaviylik kasb etgan badiiy shakli bilan ajralib turadi.

Tarixdan maʼlumki, milodiy 1402-yil iyul oyida Anqara yaqinidagi Chubuk vodiysida Samarqand hukmdori Amir Temur va Usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazid qoʻshinlari oʻrtasida ulkan toʻqnashuv boʻlib oʻtadi. “Yogʻiy lashkari mardona jang qildi, ammo Allohning inoyati ila zafar quyoshi biz tomonda

balqidi”. Filmda Temurbek bobomiz tilidan aytilgan bu soʻzlar ushbu tarixiy jangnomaning muxtasar, ammo haqqoniy bahosini ifodalaydi. Bir din, bir mazhab, bir tuzum odami boʻlgan ikki buyuk turkiy sarkarda, ikki buyuk davlat rahnamosi ne bois yovlashgani, bu mojaroni keltirib chiqargan sabab va omillar haqida asarda deyarli soʻz yuritilmaydi. Film ijodkorlari bu borada xulosa chiqarishni zukko tomoshabinning oʻziga havola etadilar. Mualliflar bosh

qahramonning tarjimai holi, uning jangovarlik epopeyasini bayon etishga urgʻu bermaydilar, aksincha, har qanday urushda oʻz erkidan judo boʻladigan baxtsiz kishilar qismatiga alohida eʼtibor qaratadilar.

Ana shunday insonlardan biri – Mojariston hukmdorining nabirasi sohibjamol Mariyadir. Bobosining davlati soyasida emin-erkin yashab oʻsgan bu shaddod qiz, taqdir taqozosi bilan Chubuk vodiysidagi qirgʻinbarot janglar girdobiga tushib qoladi. Uning yurtiga kutilmaganda urush quyni yopiriladi – Usmonlilar Mojaristonga yurish qiladi. Kexsa hukmdorning diplomatik va harbiy saʼy-harakatlari besamar ketadi. Quدراتli davlatlar – Ispaniya ham, Angliya va Fransiya qirollari ham bu oʻlka halokatini jimgina kuzatib turadilar.

Mariyaning otasi venger shahzodasi, onasi oliy rutbali ispan xonimi boʻlib, ular qizning yoshlik chogʻida dunyodan oʻtib ketgan, uning yolgʻiz valineʼmati va himoyachisi keksayib qolgan bobosi edi. Saltanat uchun notinch zamonlar boshlangach, u Mariyani zudlik bilan Ispaniyadagi xolasi, grafinya Xelenaning huzuriga joʻnatishga harakat qiladi.

Ammo shijoatli, oqila qiz bobosi va yurtining himoyasiga oʻtlanadi.

(Davomi 2-sahifada.)



Hech oʻylab koʻrganmisiz, biz foydalanayotgan ichimlik suvi qayerdan keladi? Xonadonimizdagi joʻmrakkacha qanday bosqichlardan oʻtadi? Jahonda va yurtimizda suvga munosabat qanday? Yaqinlashib kelayotgan qurgʻoqchilik haqidagi ogohlantirishlar qanchalar jiddiy? Tizimdagi muammo va yutuqlar haqidagi savollarimizga “Oʻzsuva”minot aksiyadorlik jamiyati Axborot xizmati rahbari Akmal Murodovdan atroflicha javob oldik.

– Jamiyatimiz 2019-yil 26-noyabrda “Aholining ichimlik suvi bilan taʼminlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash uchun Oʻzbekiston Respublikasining suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident qarori bilan tashkil etilgan.

Yangi tuzilma faoliyatini eski muammolarni hal qilishdan boshladi. Oldimizda oʻtgan asrning 70-80-yillaridan buyon yechimini kutayotgan masalalar koʻndalang turardi. Deyarli yaroqsiz holga kelib qolgan ming chaqirimli quvurlarni almashtirish, trillionlar bilan hisoblanadigan qarzdorlikni undirish va maʼnan eskirgan infratuzilmani yangilash kabi vazifalarning oxiri yoʻqday edi. Bilasizki, suv tabiatda yumshoq kuch bilan barcha toʻsiqlarni parchalay oladigan

neʼmat. Biz ham tizimda bosqichma-bosqich islohotlarni boshladik.

Bu orada aholini toza ichimlik suvi bilan taʼminlash, kanalizatsiya xizmatini namunalari yoʻlga qoʻyishga oid oʻndan ortiq meʼyoriy hujjatlar imzolandi. Ochigʻini aytish kerak, bungacha xorijlik investorlar mazkur tizimga ishonchsizlik bilan qaragani uchun yetarli mablagʻ ajratmagan.

Bugun esa qator davlatlarning oʻnlab xalqaro moliya institutlari shu sohaga investitsiya kirityapti. Soʻnggi yillarda ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv xizmatlari sohasiga 27,5 trillion soʻm mablagʻ yoʻnaltirildi. Shundan 16,5 trillion soʻmi davlat byudjetidan, 1 milliard AQSh dollari esa investitsiyalar hisobidan qoplandi.

Mazkur mablagʻlar evaziga 3 ming 627 ta suv inshooti hamda 40,6 ming kilometrluk ichimlik va oqova suv tarmoqlari barpo etildi. Eʼtiborli jihati shundaki, bu orqali 7,7 million aholi ilk marta ichimlik suvi bilan taʼminlandi, 11,5 million aholining suv taʼminoti yaxshilandi. Shu bilan birga, 1,1 million isteʼmolchining xonadoni oqova tizimiga ulandi. Natijada, ichimlik suvi qamrovi 63 foizdan 80,9 foizga, oqova suv xizmatlari esa 17,2 foizdan 20,9 foizgacha oshirildi.

(Davomi 5-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

Mushtarak maqsad

Yetti iqlim aro yagona oʻzbek,
Olamga koʻrk bergan durdona oʻzbek.
Bilgamish, Kuntugʻmish, Alpomish nasli,
Abadiy barhayot afsona oʻzbek.

Toʻmaris qoni bor tomirlarida,
Shumer mohiyati zamirlarida.
Choʻponida bordir amir haybati,
Shiroq fidoligi – amirlarida.

Koʻzi yetgan joyga oʻzi ham yetgan,
Gapi kesgan doim, soʻzi ham oʻtgan.
Choponini yoysa, qoʻnoqqa gilam,
Belbogʻini yozib, non-u tuz tutgan.

Koʻnglini toshlarga koʻchirgan bu el,
Yoy tortib togʻ boshin uchirgan bu el.

Xato qilsa, oʻzin kechirolmagan,
Tavba qilsa, yovni kechirgan bu el.

Qoraqum, Qizilqum – sahrosi tillo,
Zarafshon zar sochar, daryosi tillo.
Momolarin sochi kumushga jilo,
Bobolar kaftida duosi tillo.

Bir yuz oʻttiz millat-elat hamnafas,
Koʻrmagan armonda, koʻrganda havas.
Yangi Oʻzbekiston – mushtarak maqsad,
Bizni kutayotir ulugʻ Renessans!

Oʻzbektosh TOʻRAXONLI,
Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi

TIBBIYOT

INSONIYAT TOLEYI KAFOLATI

Jahon kinematografiyasi durdonasi boʻlmish “Professor Douelning vasiyati” badiiy filmi 1984-yili suratga olingan. Syujet mohiyatiga tibbiyot, xususan, neyroxirurgiya taraqqiyotiga oid ilmiy bashoratlar singdirilgan. Filmda ilgari surilgan fikrni shunday talqin qilish mumkin: “Birinchii jarroh – Yaratganning oʻzidir. U Odam Atoning qovurgʻasidan

Momo Havoni vujudga keltirgan. Agar olimlar toʻqimalarning xususiyatini mukammal oʻrgansa, koʻchirib oʻtkazishdagi murakkabliklarni yecha olsa, tanadagi har qanday yoʻqotishni tiklash mumkin”.

Buni qarangki, qirq yil oldin ilmiy fantastika hisoblangan bu soʻzlar bugun haqiqatga aylanib boryapti.

(Davomi 3-sahifada.)



MUHTASHAM OLTİ YUZ YIL

Boshlanishi 1-sahifada.

Kuchlar teng bo'lmagan dahshatli jangda mojar hukmdori halok bo'ladi, lashkari tor-mor keltiriladi, yarador Mariya asir olinib, sulton haramiga olib ketiladi...

Film g'oyat keskin va hayajonli, dramatik voqealar tasviri bilan boshlanadi va mana shu ruhiy-hissiy holat tomoshabin e'tiborini asar oxiriga qadar qo'yib yubormaydi.

Eng qizig'i, kartina syujeti ikki parallel yo'nalishda – olis o'tmish va bugungi kun voqealarining bir qarashda aql bovar etmas bo'lib tuyuladigan uzviy mushtarakligi asosida rivojlanib boradi.

Jasur va erksevar Mariya haramdagi "oltin qafas"dan qochishga bir necha bor urinadi. Qismatdoshi Anxelina Mariyani bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi. Lekin Mariyaga oqko'ngil turk qizi, joriya Sabriye yordam beradi. Bu orada janggohda dahshatli muhoroaba boshlanadi. Amir Temur lashkarining zarbalari natijasida Rum qo'shini orasida parokandalik yuz beradi. Mariya vaziyatdan foydalanib, yana qochadi.

Uzoq ta'qiblardan so'ng endi Samarqand amirining navkarlari ko'lga tushgan Mariya qozi Xoja Muhammad Keshiy himoyasiga topshiriladi. (Shu o'rinda aytish joizki, asli shahrisabzlik bu tarixiy shaxs Temurbekning yaqin kishilaridan biri bo'lgan. U Amir Temur elchisi maqomida asira qizlarni Ispaniya qiroli Enrique III ning saroyiga kuzatib boradi, oliy hukmdor bilan uchrashadi. Ikki yildan so'ng qirolning elchisi sifatida Sohobqiron huzuriga yo'l olgan Rui Gonzales de Klavixoga Madriddan to Samarqandga qadar hamrohlik qiladi. Bu haqda ispan elchisi o'zining xotira kitobida ma'lumot berib o'tgan).

Mariya dastlab turoniyalarni ham dushman deb biladi, o'ziga qo'riqchi qilib qo'yilgan sodda, do'lvor askar – Tog'ay barlosga ham nafat ko'zi bilan qaraydi. Ammo yigitning samimiy munosabati, Muhammad Keshiyning qiz bilan ispan tilida gaplashishi, hamdardligi, bo'lib o'tgan suhbatlardan so'ng Mariyaning "Ulug' amir" – Temurbek haqidagi fikr-tasavvuri butunlay o'zgaradi. Qalbida, Keshiyning ta'biri bilan aytganda, "Xudoning bu oqiz, ammo yengilmas bandasi"ni ko'rish, u bilan loaqal ikki og'iz so'zlashish istagi paydo bo'ladi.

Zotan, Amir Temur ham o'z davrining udumiga muvofiq ish tutishi, ya'ni g'olib podshoh sifatida mag'lub hukmdorning haromini o'z tasarrufiga o'tkazishi, jumladan, Mariya, Anxelina, Katalina ismli uch nasroniy qizni kanizak qilib olishi yoki sarkarda va a'yonlariga turfa etishi mumkin edi.

Ammo Sohobqiron Qur'oni Karimning, jangda asir tushganlarga zulm qilmang, aksincha, ularni beg'araz ozod eting, degan mazmundagi ko'rsatmasiga rioya etgan holda, urush tugashi bilan bu g'aribalarni tutqunlikdan xalos qiladi.

Asiralarni xavf-u xatar to'la mudhish muhitga o'z holicha qo'yib yubormasdan, o'sha vaqtdagi Kastiliya va Leon (hozirgi Ispaniya) davlatining elchilari sifatida Chubuk jangida kuzatuvchi o'laroq ishtirok etgan Soto Mayor va Palasuelosning yoniga Muhammad Keshiy va bahodir askarlarini qo'shib, qizlarni ispan diyoriga beshikast yetkazib qo'yish haqida farmoni oliy beradi.

Mariya Ulug' amirning bunday olijanob marhamatidan hayratga tushadi. Ispaniyaga sog'-salomat yetib oladi, elchi Soto Mayor bilan turmush qurib, tinch va osuda umr kechiradi. Yillar o'tgan sari Mariya o'zi va avlodining ilohiy bir mo'jiza tufayli muqarrar o'limgan omon qolganini, xaloskori bo'lmish Ulug' amir oldidagi qarzdorlik burchini tobora anglab boradi.

Parvardigorini tanigan bir inson sifatida o'z zimmasidagi qiyomat qarz uzilmay qolib ketayotganidan iztirob chekadi. Umrining nihoyasida u farzandlari va nabiralarga qoldirgan vasiyatida ularga imkon topib, olis Samarqand shahriga, Sohobqiron huzuriga borib, ul marhamatli zotga minnatdorlik izhor etishlarini yoki Ulug' amir xotirasiga sham yoqib, duoyi fотиha qilib qaytishlarini tayinlaydi.

Bir-birini quvib, yana yillar, asrlar o'tadi, bu qadimiy, zodagon xonadonning olis momakaloniga aylangan donna Mariyaning xotirasi, boshdan kechirgan sog'uzashtlari avloddan avlodga, tildan tilga o'tib, sulolaviy bir afsonaga aylanadi. Ammo oradan shuncha vaqt kechsa-da, bu ko'hna vasiyatni ado etishga imkon va bunga qodir bir inson topilmaydi.

Mana shu g'aroyib qissadan voqif bo'lgach, tomoshabin filmning ilk kadrlarida yangragan qo'shiq ma'nosini anglab yetadi. Samarqandlik dilbar shoirna Xosiyat Bobomurodova shoi'riga iste'dodli kompozitor Qosim Muinov musiqa bastalagan qo'shiqni O'zbekiston xalq artisti Sevara Nazarxoninja bir tug'yon bilan ijro etgan:

*Quvonch-u g'amlarni yutgan qasrlar,
Registonda yig'lar, kular asrlar.
Har qarichda bordir jumbog'-u sirlar,
Samarqandga kelgij, Samarqandga kel!*

*Shoh bo'lmoq istasang bitta yurakka,
Qul bo'lmoq istasang bitta yurakka,
Ko'milmoq istasang bitta yurakka,
Samarqandga kelgij, Samarqandga kel!*

Beixtiyor o'ygatolamiz: chindan ham, nega boqiy shahar Samarqand yer yuzidagi millionlab insonlarni o'z bag'riga chorlaydi, ularni o'ziga umrbod maftun etib qo'yadi? Buning boisi, sir-u asrori nimada? Axir, dunyoda go'zal va obod shahr-u qasabalar bisyor-ku! Film davomida bu savolga har qaysi tomoshabin o'zicha javob topgandek bo'ladi.

Donna Mariyaning vasiyatini ro'yobga chiqarish vazifasi uning olis zurriyodi, bizning zamondoshimiz bo'lgan kichik Mariya qismatiga tushadi. U tuyqus reinkarnatsiya sir-asrorini boshidan kechiradi, ruhan, xayolan olti yuz yil naridagi moziyga qaytib, momakalonining hayoti, o'y-kechinmalari bilan yashay boshlaydi. Bu g'aroyib evrilish qizni qattiq hayajon, tashvish va qo'rquvga soladi. Rejissyor va operator uning qalb tebranishlarini g'oyat noziklik va hassoslik bilan filmning chuqur ma'no natqamlari, emotsional-psixologik kadrlarida yaqqol aks ettiradi.

Ta'kidlaganimizdek, kartinaning bosh qahramoni – Amir Temur a'lo hazratlaridir. Asarda uning slymosi bor-yo'g'i ikki-uch marta, shunda ham juda ixcham lavhalarda namoyon bo'ladi. Lekin filmning butun mazmun-mundariyasi, barcha syujet chizgilarilari Ulug' amirning shiddatli hayoti, nodir zehni, keng tafakkuri, zafarli yurishlari, yuksak himmati va sohobqironlik salobati bilan bog'liq holda tasvirlanadi.

Asarning jamiki personajlari – ular Temurbekning xoh do'stlari, amir-u a'yonlari bo'lsin, xoh ashaddiy g'animlari bo'lsin, butun film mobaynida ushbu qudratli zot haqida so'zlaydilar. Uning mamlakatdorlik va jahongirlik salohiyati, azm-u shijoatiga goh havas, goho hasad ila boqsalar-da, barchalari buyukligiga shak-shubhasiz tan beradilar.

Film voqealari Temurbek Oqsaroy va Ko'ksaroy kabi muazzam qarorgohlarida, ta'bir joiz bo'lsa, Mag'ribdan tortib Mashriqqaqcha dunyoning nafas olishini yaqqol sezib-anglab turgandek, ularning taqdiriga daxldor olamshumul qarorlar qabul qilayotgandek taassurot qoldiradi.

Darhaqiqat, hazrati Sohobqiron davrida Samarqand kurrayi zaminning nafaqat sayqaliga, balki global masalalar hal bo'ladigan siyosiy markaziga aylangan edi.

Ushbu fikr filmidagi tarixiy faktlarning badiiy talqinida – Fransiya, Angliya, Ispaniya kabi davlatlar hukmdorlarining Temurbekka yo'llagan nomalarida va Samarqand sultonining yuksak shukuh, sha'n-u shavkat ila yo'g'rilgan javob maktublarida o'z tasdig'ini topadi.

Asarning yana bir muhim jihati – unda Amir Temur buyuk xaloskor siymosida gavdalanadi. Bu

vasiyatini ado eta olganiga, ratsionalizm va manfaat ustun bo'lmish XXI asrda ham beixtiyor "shunday sentimental tuyg'ularga asir bo'lib yashash mumkin"ligiga guvoh bo'lamiz.

Taqdir yozug'ini ko'ringki, zimmasida shunday vazifa – missiya borligini anglagan qizgina saraton kasalligiga chaligan, tinka-madori qurib, kundan kunga so'nib borarkan, bu muhim safar uchun unda hafsala va ishtiyoq qolmaydi. Avloddan avlodga qarz bo'lib kelayotgan vasiyat xabarini Mariyaga yetkazib, uni yo'lga undagan ruhoniylar padre Felipe Injil kalomini zikr etib, qizga dalda beradi: "Ishonching seni qutqarur, bo'tam". Ammo Mariya hamon beqaror, muztar bir holatda qolayotganini ko'rib, ruhoniylar padar yana ilohiy so'zlarni takrorlaydi: "So'rang – sizga berilur. Izlang – topursiz. Taqillating – ochilur".

Shundan so'nggina hayotdan batamom umidi so'ngan Mariya noma'lum yurt sari yo'lga jazm qiladi va saodatli bir kunda Amir Temur maqbarasi poyiga yetib keladi. "Ey ulug' zot, menkim – o'sha jonhalak Mariya, ruhim halovat istab, olti yuz yil yo'l bosib, nihoyat, huzuringizga keldim", deb momakaloni nomidan shukrona keltiradi. Va shu asno marmar sahnga behush yiqiladi...

Filmning keyingi qisqa kadrlarida biz ilohiy mo'jiza tufayli Mariyaning bedavo darddan xalos bo'lib, sevgilisi Lusio bilan turmush qurgani va o'g'liga Temur deb ism qo'ygandigan xabardor bo'lamiz. Albatta, materialistik – moddiyunchilik nuqtayi nazaridan qaraganda, kishi bu voqeani mistika deb qabul qilishi ham mumkin. Ammo hayotga qalb ko'zi, iymon va ixlos ko'zi bilan boqadigan har bir inson uchun bu hodisa butunlay o'zga mohiyat kasb etishi shubhasiz.

Filmda Chubuk vodiysidagi jang oldidan kadr ortida yangragan so'zlar bunga dalil bo'la oladi:

*Yaldo kechalarni shabiston etgan,
Bir lahzada cho'lni gulliston etgan,
Boshimga mushkul tushibdir, oson etgil,
Ey barchaning mushkulini oson etgan.*

Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafamoma"sida hazrati Sohobqiron sulton Boyazidga qarshi yurishga hozirlik ko'rar ekan, Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" kitobini ochib, shu satrlarga ko'zi tushib qolgani bayon qilinadi.

Temurbek ularni karomat belgisi sifatida qabul qilib, yod oladi va kecha-yu kunduz takrorlab yuradi. Iltijolari ijobat bo'lib, qudratli g'anim ustidan g'alaba qozonadi.

Sargashta Mariya Ulug' amir maqbarasi poyiga bosh qo'yar ekan, balki uning ham qalbida shunday

yemirilishi va buning oqibatida yuz berayotgan demografik inqiroz bilan bevosita bog'liq ekan sir emas.

Lekin, eslang, bir zamonlar nasroniy jamiyat hayotida ayni shu tushunchalar muqaddas hisoblanmasmidi?

Shu bois, filmning so'nggi lavhalarida Lusio va Mariyaning cherkov dargohida, Yaratgan parvardigorga ixlos bildirib, o'zaro mehr va sadoqat bilan takrorlaydigan ilohiy qasamyodi ramziy ma'no kasb etib yangraydi:

"Sog'-omon paytingda ham, bemor bo'lgan chog'laringda ham, boylik davri va qashshoqlik onlarida ham – toki o'lim bizni bir-birimizdan ayirmas ekan, senga umrbod vafodori yor bo'lishga ont ichaman".

Pok yuraklarda bir umr muhrlanib qoladigan qanday ta'sirchan so'zlar!...

Afsuski, odamzod keyin-keyin bu muqaddas ahdni unutdi, unga xiyonat qildi va shu tariqa bitmas-tuganmas tashvish va fojialarga giriftor bo'ldi.

"Ulug' Amir va donna Mariya" filmi tomoshabinlar, birinchi navbatda yoshlarni mana shunday xatarlardan ogoh etib, go'yoki ularga o'ziga xos messej yuborayotgandek taassurot qoldiradi. Zero, Lusio va Mariya insoniylik nomi va sharafini davom ettirib, yurak va vujudlarini nikoh rishtalari ila bog'laydilar, oila qurib, farzandli bo'ladi, saodatli hayot sari qadam qo'yadilar.

Biz yuqorida inson ozodligi g'oyasi, xaloskorlik tuyg'usi haqida to'xtalgan edik. Bu mavzu filmning o'q ildizini tashkil etadi. Ayni vaqtda ushbu g'oya kartinaning ko'lamdori mazmuniga, serqirra qatlamlariga mahorat bilan singdirib yuborilgani alohida e'tiborga sazovor.

Masalan, Istanbuldagi onkologiya klinikasi professori Keydzi Mariya bilan Toshkent aeroportida tasodifan uchrashib qoladi. Kasallik tufayli odamovi, asabiyl bo'lib qolgan Mariya doktorni ko'rib, avvaliga jahli chiqadi, uni Lusio tomonidan o'zini kuzatib yurish uchun yollangan, degan gumonga borib, vrachga qo'pol muomala qiladi. Ammo Keydzi bu yerga butunlay boshqa maqsadda – keksa otasining Samarqand safariga hamrohlik qilish uchun kelganidan voqif bo'lib, Xiroshi-san bilan tanishib suhbatlashgach, ko'ngli xotirjam bo'ladi.

Xiroshi-san – Ikkinchi Jahon urushi yillarida O'zbekistonda tutqunlikda bo'lgan. Qay bir ma'noda donna Mariya bilan qismatdosh. U garchi dushman armiyasining askari bo'lsa-da, o'zbeklar diyorida boshqa yapon mahkumlari qatori o'ziga ko'rsatilgan insoniy munosabatni oradan necha yillar o'tmasin, ututolmaydi. Ayniqsa, barakda



O'zgalarning dardiga malham bo'lish, madadga muhtojlarga beg'araz ko'mak berish, millati, tili, dinidan qat'i nazar, barcha insonlarni Xudoning bandalari deb bilish – filmda bu kabi xususiyatlar o'zbek xalqining genetik kodida azaldan mujassam ekaniga yana bir ishora qilinadi.

Maqolamiz boshida "Ulug' Amir va donna Mariya" filmi real voqealarga asoslanganini aytib o'tgan edik. Bu tom ma'noda epik kinokartinaning hayotiy ildizlari haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lishni istagan tomoshabinlarga biz ssenariy muallifi Xayriddin Sultonning "Navoiy – 30" kitobida ("Adabiyot" nashriyoti, Toshkent, 2021-y.) chop etilgan "Xaloskor" nomli hikoyani o'qishni tavsiya qilamiz. Shu bilan birga, mavzu haqidagi tasavvuringizni boyitmoqchi bo'lsangiz, poytaxtimizning Yakkasaroy tumanida joylashgan, mehnat faxriysi, fidoyi inson Abduljalil Sultonov o'z xonadonida tashkil etgan, yaponiyaliklarning O'zbekistondagi hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladigan mo'jaz, ammo mazmunan boy muzey bilan tanishishni maslahat beramiz (mavridi kelganda aytib o'tish zarurki, Abduljalil aka bu ezgu ishlari uchun O'zbekiston Prezidentining farmoniga binoan "Mehnat shuhrati" ordeni hamda Yaponiya imperatorining "O'tayotgan quyosh, oltin va kumush nurlar" ordeni bilan taqdirlangan).

Film ko'rigida bu tabarruk inson oilasining vakillari ham ishtirok etgani anjumanga o'zgacha fayz bag'ishladi.

"Ulug' Amir va donna Mariya" filmi o'zbek kinematografiyasining, Yangi O'zbekiston kino san'atining yirik xalqaro ijodiy loyihasidir.

Kinopolotno Turkiyaning "Kanguru film yapım ticaret limited şirketi" (muassisi va rahbari – Vulkan Ongi) bilan yaqin ijodiy hamkorlikda suratga olingan.

Filmdagi asosiy rollarni o'zbekistonlik Elbek Fayziyev, Jo'rabek Arziyev, Ko'pursin Allanazarov, O'lmas O'rayev, Zilola Iskandarova, Bahodir Boltayev kabi artistlar bilan birga buyuk britaniyalik Nik Kornuoll, Robert Lyuis, ispaniyalik Oskar Foronda, Xuan Kasilyas, italiyalik Giovanni Lelli, Xaruxiko Xal Yamanouti, Billi Bozz, niderlandiyalik Eppo Vortman, amerikalik Maykl Mitchell, fransiyalik Kengo Saito, turkiyalik Yunus Taxa Karaaslan, Nuray Erkol, Yasemin Yazuchi, Fatih Yilmaz, Haydar Ko'ysel, turkmanistonlik Zokirjon Bozorov singari taniqli xorijiy aktyorlar ijro etganlar. Donna Mariya va kichik Mariya obrazlarini braziliyalik iste'dodli aktrisa, maftunkor Jessica Mey Kara mahorat bilan yaratgan.

Bu murakkab va ulkan kinoloyihani ro'yobga chiqarishda operator Rustam Murodov, badiiy rahbar Jahongir Qosimov, adabiy maslahatchi Shuhrat Rizayev, ilmiy maslahatchilar Hamidulla Dadaboyev, Xurshid Fayziyev, rassom Shamshetdin Ibrayimov, kompyuter grafikasi bo'yicha koordinator G'olibjon Sanoqulov, produserlar Firdavs Abduxolliqov, Bahodir Odilov, kompozitor Qosim Muinov, xonanda Sevara Nazarxon, shoirna Xosiyat Bobomurodova, Faxriyori kabi taniqli ijodkorlar, shuningdek, Shaken Altinbek (Qozog'iston) va Aziz Tore (Turkiya) boshchiligidagi kaskadyorlar guruhlarining ham xizmatlari katta bo'lgan.

Filmning o'zbek, ispan, ingliz, venger, turk, yapon tillarida suratga olingani uning ko'lami va geografiyasi ham naqadar keng ekanidan dalolat beradi.

Har biri o'z so'zi, o'z xarakteriga ega mashhur ijodkorlarni yaxlit baynalmilal jamoaga aylantirib, umumiy maqsad sari safarbar eta olgan Yolqin To'ychievning nafaqat rejissyorlik mahorati, balki menejerlik qobiliyati ham tahsinga sazovor.

Muhtaram Prezidentimiz o'z chiqishlarining birida: "Agar biz tariximizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, xalqimizning milliy g'ururini ko'tarmoqchi bo'lsak, buni birinchi navbatda kino yordamida amalga oshirishimiz kerak", deb ta'kidlagan edi.

"Ulug' Amir va donna Mariya" tarixiy-badiiy filmi o'zbek kinosining ana shunday yuksak talab asosida katta taraqqiyot yo'lga chiqib borayotganini, yanada baland marralarni egalashga qodir ekanini ko'rsatadi.

Tursunali QO'ZIYEV,
O'zbekiston san'at arbobi,
akademik



o'rinda gap Sohobqironning Turon o'lkasini mo'g'ul istibdodidan xalos etganidagina emas.

Bu fazilat uning Boyazid haramidagi Mariya va dugonalarni ozod etishi bilan ham cheklanmaydi. Amir Sulaymonshohning Temurbek nomidan Mariyaga qarata "Urush tugadi, nasroniyning qizi. Endi sen uyingga qayt va omonlikda yasha", degan so'zlari va unga ko'rsatgan marhamati zamirida katta ma'no yotadi. Bu xitob uning go'yoki boshqa xalqlarga yo'llagan tinchlik va ezgulik salomidek tuyuladi. O'z davlatining manfaatini, uning kelajagini o'ylagan Sohobqiron ashaddiy dushmaniga ham muruvvat va yaxshilik qo'lini uzatadi. Bunday oliyhimmatlik Yildirim Boyazid va uning o'g'llariga qilgan adl-u karamida yaqqol namoyon bo'ladi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, so'zimiz boshida Temurbekni "g'oyat sirli shaxs" deb ta'riflagan edik. Samarqand amiri oxirat dunyosiga safar qilganidan keyin ham uning nomi atrofida yana uzoq davrlar sirli hodisa va voqealar davom etgan. Bir paytlar Eron hukmdori Nodirshohning Amir Temur sag'anasiga o'matligan noyob oniks toshini qo'porganidan keyin yuz bergan voqealarni yoki yaqin tarixda, 1941-yilda ul zotning ruhini bezovta qilib, qabrini ochish bilan bog'liq sinoatlarni eslang.

"Ulug' Amir va donna Mariya"ni tomosha qilar ekanmiz, biz unda tasvirlangan aql bovar etmas voqeaning, ya'ni kichik Mariyaning momakaloni

o'tinch-iltijosi bo'lgandir? Zero, "barchaning mushkulini oson etgan" zot bir bechora ayolning dardiga shifoyi komil ato etishi ilohiy hikmat namoyishidir.

Muhimi shundaki, filmni tomosha qilar ekanmiz, bu haqiqatga yana bir bor iymon keltiramiz. Asar ijodkorlarining yutug'i – tomoshabinni shu kabi badiiy-ruhiy to'qimaga ishonтира olishida emasmi? Haqiqiy san'atning kuchi ham, ta'siri va jozibasi ham asli shunda.

Nazarimda, film zamirida g'oyat muhim va nozik bir fikr ta'kidlanayotgandek tuyuladi. E'tibor bering, bemor Mariya obrazi bugun ma'naviy xastalik yoqasiga kelib qolgan G'arb madaniyatining timsolini eslatmaydimi?

Asar boshida qizning sevgilisi Lusio huzur-halovatdan boshqa narsani o'ylamaydigan, ma'shuqasi bilan shuncha yil uchrashib yurgan bo'lsa-da, "turmush qurishga hali erta" deb hisoblaydigan yengiltak, beqaror kimsa sifatida ko'rinadi. Faqat nogahonda Mariyaning boshiga tushgan og'ir kulfat, olis Samarqand safarida kechgan suhbatlar, kuchli ruhiy larza tufayli bu xudbin yigitning ko'zi ochiladi, u tiriklikning asl ma'nosi haqida o'ylab qoladi.

Chindan ham, hozirgi kunda G'arb dunyosining ko'plab ijtimoiy muammo va ziddiyatlari avvalo azaliy, umuminsoniy qadriyatlar – an'anaviy tushunchadagi nikoh va oila institutining

og'ir dardga chalinib yotganida unga shifobaxsh taom – sumalak olib kelib bergan Zahro degan qizni ko'p bora yodga oladi. Sovet soqchilarining qattiq qarshiligiga qaramasdan, o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, tutqunlarga har kuni ikki dona non keltirib beradigan Abduljalil ismli yetti yashar ozg'in bolakayning himmatini eslaydi.

Ayni shu tuyg'u tufayli Xiroshi-san har yili Toshkentga kelib, keksayib qolgan Abduljalil bilan uchrashadi, mahkumlik yillari shu zaminda qolgan do'stlarining qabrlarini – xalqimiz hurmat-e'tibor bilan saqlab kelayotgan yapon mozorlarini ziyorat qiladi.

To'qson yoshdan oshgan Xiroshi-san bu gal Samarqand sari yo'lga o'tlgan. Mariyaning "Bundan sizga nima naf bor?" degan hayratomuz savoliga javoban: "Naf? Qanday naf borligini bilmayman. Lekin bilamanki, so'nggi qabrni ziyorat qilganimchimcha asirlik tuyg'usidan qutulolmayman", deydi yaponiyalik mo'yasfid.

Bu so'zlar Mariyaga qattiq ta'sir qiladi. "Asirlik tuyg'usi? Bilaman, tushunaman", deydi u va kuchli hayajon bois nogahon bir lahzada hushini yo'qotadi...

Xiroshi-sanga safarda o'g'li bilan birga Abduljalil va uning qizi Mohira hamrohlik qiladilar. Shu asnoda ulari kabi Mariya bilan yaqindan tanishib, ko'ngli g'arib bu qizga mehr va iltifot ko'rsatadilar.

Boshlanishi 1-sahifada.

Xususan, Davlatimiz rahbari 2023-yil 31-oktyabr kuni Falastin–Isroil nizosi xususida toʻxtalib, “Biz Falastin va Isroil tomonidan qurbon boʻlgan barcha insonlarning oilalariga chin dildan taʼziya va hamdardlik izhor etamiz”, degan edi.

Prezidentimizning hamdardligi faqat soʻzda qolib ketmay, “bagʻrikeng oʻzbekning oʻchmas imoni” buyurganiday amalda ham oʻz ifodasini topdi. Gʻazo sektori aholisiga baholi qudrat yordam koʻrsatish uchun BMTning Yaqin Sharq agentligiga 1 million 500 ming dollar ajratildi. Bu qaror xalqimiz va xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholandi, eʼtirof etildi.

Davlatimiz rahbari xalqaro minbarlarda turib, dunyo yetakchilarini bot-bot ushbu hududda tinchlik oʻrnatishga chaqirmoqda. Quyida Prezidentimiz nutqidan parchalar oʻqiyviz:

“Global tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan Yaqin Sharqdagi Falastin–Isroil urushi barchamizda katta tashvish uygʻotmoqda. Biz tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlarni toʻxtatishga, tinch muzokaralarni boshlash, oqilona murosaga kelishga chaqiramiz” (Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining oʻn oltinchi sammiti, 2023-yil 9-noyabr).

“Eng ogʻriqli muammolarga xalqaro huquqning umumeʼtirof etilgan meʼyorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va rezolyutsiyalari asosida yechim topish muhim, deb hisoblaymiz. Jumladan, Falastin–Isroil nizosining yagona va adolatlil yechimi “ikki xalq uchun – ikki davlat” tamoyilini roʻyobga chiqarishdan iboratdir” (Parlamentlararo ittifoqning 150-Assambleyasi, 2025-yil 7-aprel).

“Gʻazoda sulh bitimining buzilishi va harbiy harakatlarning qaytdan boshlanishi barchamizni chuqur tashvishga solmoqda. Toki “Ikki xalq uchun – ikki davlat” tamoyili roʻyobga chiqmas ekan, Falastin–Isroil nizosining adolatlil yechimini topish mumkin emas” (Turkiy davlatlar tashkiloti norasmiy sammiti, 2025-yil 21-may).

“BUNDA BOR HARORAT, MUHABBAT, SHAFQAT...”

“Koʻpdan buyon choʻzilayotgan Gʻazo fojiasiga eʼtiboringizni qaratmoqchiman. XXI asrda koʻz oʻngimizda koʻplab begunoh insonlarning nobud boʻlayotganini hech nima bilan oqlab boʻlmaydi. Bu muammoning yagona yechimi – nizoni xalqaro huquq meʼyorlari va qabul qilingan rezolyutsiyalar asosida adolatli hal qilishdir. Falastin xalqi oʻz mustaqil davlatiga ega boʻlishga haqlidir” (Toʻrtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi, 2025-yil 10-iyun).

Koʻrib turibmizki, Falastin masalasi koʻtarilgan yigʻinlar turli darajada va mavzuda boʻlsa ham, zaminning ogʻriqli nuqtasiga boʻlgan Oʻzbekistonning munosabati aslo chetga surib qoʻyilgani yoʻq.

Har bir davlat rahbarining munosabati oʻsha mamlakat va xalqning pozitsiyasini ifoda etadi. Garchi Gʻazoga toʻgʻridan toʻgʻri moddiy yordam berish imkoni nihoyatda chegaralangan boʻlsa ham, ruhiy madad berish qoʻlimizdan keladi. Jahon hamjamiyati eʼtiborini bu masalaga tez-tez jalb qilish tinchlik yoʻlidagi muhim qadamdir.

Falastin xalqiga bu olamda yolgʻiz emasligini, ular haqida qaygʻuradigan, ular uchun tinch kunlar boshlanishini xalqaro qonunchilikda mustahkamlashga urinayotgan doʻstlari borligini his qilishning oʻzi kuch-quvvat bagʻishlaydi.

“SOʻNGGI OYLAR ICHRA BIRINCHI CHECHAK...”

Davlatimiz rahbari 2024-yil 11-noyabr kuni Falastin muammosiga bagʻishlangan navbatdan tashqari arab-islom sammitida ishtirok etib, tinchlikka eltuvchi bir nechta xayrli

tashabbuslarni ilgari surgan edi. Jumladan, Prezidentimiz Falastin–Isroil muammosini tinchlik va diplomatiya yoʻli bilan hal etishga qaratilgan barcha amaliy harakatlarni toʻliq qoʻllab-quvvatlab, urushda jabrlangan bir guruh falastinlik bolalar va ayollarni Oʻzbekiston shifoxonalarida begʻaraz davolashga tayyorligini taʼkidlagandi.

Ushbu xayrli tashabbus ortidan oʻtgan yilning 26-dekabr kuni Oʻzbekiston tomonidan Toshkent–Misr–Toshkent yoʻnalishida maxsus charter reys amalga oshirildi. Urush hududlarida aziyat chekkan 100 nafar falastinlik bolalar va ayollar olib kelindi.

Oʻzbekistonga kelgan bemor bolalar va ayollar, ularga hamrohlik qiluvchilar davlat tomonidan toʻliq tibbiy koʻriktan oʻtkazildi va sogʻlomlashtirish shahogohlariga joylashtirildi.

“VA MEHNAT NONINI KOʻRAMIZ BAHAM...”

“Oʻzbekistondagi bir guruh falastinlik fuqarolarga davlat gʻamxoʻrligi, mehr-shafqat tamoyillari asosida koʻmak berish tizimini yoʻlga qoʻyish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmon mohiyatan tub islohotlarimiz izchilligi va nazorati kafolatlarini aks ettiradi. Ushbu tarixiy hujjatda reabilitatsiya qilingan falastinliklarga koʻmak berishning eng mayda detaligacha daqiqlik bilan hisobga olingan. Har bir vazifa tegishli vazirlik va tashkilotga biriktirilgan. Farmonning insonparvarlik mohiyati-yu, huquqiy va siyosiy jihatlari keng sharhlash siyosatshunoslarga tan, albatta. Biz esa undagi ayrim qismlarga eʼtibor qaratmoqchimiz.

Farmon matni shu qadar sinchkovlik, insonparvarlik, koʻngilparvarlik va milliy

qadriyatlarimizga xoski, falastinliklarga nisbatan “mehmon” soʻzi tanlangan. Bu sifat koʻngilga tegmaydigan, ayni oʻzbek xalqi xarakteriga mos ifoda boʻlganki, uning zaminida dinimiz, madaniyatimiz va anʼanalarimiz ustuvorligi yotibdi.

Farmonda nazarda tutilganidek, “Mehmonlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qisqa va uzoq muddatlarga moʻljallangan takliflarni ishlab chiqish, joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini monitoring qilish” ham ochiq muloqot tamoyilining yana bir koʻrinishidir. Bunga hamohang ravishda “har bir oila uchun zarur boʻlgan ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish rejalarini ishlab chiqib”, tasdiqlash nazarda tutilgan.

Farmonda yana quyidagilar oʻz aksini topgan:
– mehmonlar yashash manzillari boʻyicha ularning farzandlarini davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlari va maktablarga joylashtirish;
– taʼlim tashkilotlarida mehmonlar farzandlarining moslashuvi va har tomonlama kamol topishi yuzasidan doimiy monitoring amalga oshirish;
– mehmonlarni davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalar taʼminoti uchun ota-onalar toʻlovidan 2028-yil 1-yanvariga qadar ozod etish;
– mehmonlarning farzandlari davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlari va maktablarga navbatga qoʻyilmagan holda, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari talabnomasi asosida joylashtirish;
– mehmonlarning farzandlarini davlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida qoʻshimcha taʼlimga (kasb-hunar, axborot texnologiyalari, oliy taʼlim tashkilotlariga



tayyorlash yoʻnalishida) jalb qilish hamda ularni oʻqitish xarajatlarini Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan toʻliq qoplab berish.

Farmonda tibbiy va ruhiy dalda olgan, moddiy koʻmak koʻrsatilgan mehmonlarning bandligini taʼminlash ham ustuvor masala sifatida alohida eʼtiborga olingan. Buning uchun Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan birgalikda mehmonlarning xohishiga koʻra ularning bandligini taʼminlash, zamonaviy kasb-hunarni egallashiga koʻmaklashish boʻyicha Respublika komissiyasiga takliflar kiritadi.

Shuningdek, tadbirkorlik bilan shugʻullanish istagida boʻlgan mehmonlarni oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, “Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash”, “Biznesga birinchi qadam” va “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturlari doirasida tadbirkorlikka jalb qilish choralari koʻriladi.

Bir soʻz bilan aytganda, mazkur farmon mehmondoʻst oʻzbek xalqi hamda Rahbarining “azaliy odamiylik” tamoyillariga naqadar sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

Otabek BAKIROV

INSONIYAT TOLEYI KAFOLATI

Boshlanishi 1-sahifada.

XXI asrda insondan insonga toʻqimalar, paylar, qon hujayralari, nerv tolalari, shuningdek, ayrim tana aʼzolarini koʻchirish yil sayin taraqqiy etib, transplantologiyaning yangidan yangi imkoniyatlari kashf etilmoqda. Jumladan, Amerika olimlari sichqon miyasiga neyroglial hujayralar oʻtkazish orqali uning xotiras va kognitiv (anglash) qobiliyati yaxshilanishini isbot qildi. Bu tadqiqotlar oʻz navbatida glial (yordamchi) hujayralar transplantatsiyasini amalga oshirish natijasida skleroz kasalligiga chalingan bemorlarni davolash mumkinligini koʻrsatdi. Zero, inson miyasining xotira quvvati 2,5-6 pitagaytgacha (DVD filmlarini 300 yildan oshiq toʻxtovsiz tomosha qilish mumkin) ekanligi allaqachon aniqlangan. Biroq insoniyatning katta qismi aynan xotira yomonlashuvidan aziyat chekadi va bu xastalarning yildan yilga yasharayotgani ham sir emas.

Dunyo shifokorlarini oʻylantirayotgan jiddiy muammolardan biri – asab tizimi kasalliklariga chalingan bemorlar sonining ortib borayotgani. Bosh miya bilan bogʻliq patologiya oʻta jiddiy boʻlib, uni davolash ham bir muncha murakkab vazifa sanaladi. Qolaversa, inson hayotiga xavf soluvchi qator kasalliklar borki, ular faqat jarrohlik yoʻli bilan bartaraf etiladi. Bosh va orqa miya oʻsmalari, miya anevrizmalari, arteriaovenoz malformatsiyalar, travmatik jarohatlar, umurtqa pogʻonasi churrasi, insult asoratlari, har xil gematomalar va epilepsiyaning baʼzi turlarini operativ tarzda davolash imkoniyati konstruktiv davolashga qaraganda kengroq.

Shu jihatdan mamlakatimizda neyroxirurgiya tarmogʻini rivojlantirish, texnik bazasini takomillashtirish boʻyicha juda katta ishlar amalga oshirilaypti. Zero, miya yuz milliard neyron va trillion hujayradan tashkil topgan ulkan bir sinoat, neyrojarroh esa uni qoʻllari bilan ushlab, tekshirish imkoniyatiga ega.

–Haryili Sogʻliqni saqlash vazirligitonidan oʻttizga yaqin neyroxirurg oʻqish uchun xorijga yuboriladi, – deydi Respublika neyroxirurgiya markazi direktori oʻrinbosari, tibbiyot fanlari doktori Abdurahmon Norov. – Ularning barcha xarajati davlat byudjetidan qoplanadi. Malaka oshirib qaytgan mutaxassislar yangi davolash usullarini faqat markazimizda emas, balki hududiy filiallarimizda ham joriy etadi. Prezidentimiz tibbiyot sohasidagi yigʻilishlarda rivojlanish faqat poytaxtda qolib ketmasligi kerakligini tez-tez takrorlaydi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, filiallarimiz salo-



hiyatini poytaxtdagi neyromarkazlar darajasiga koʻtarishga harakat qilaypmiz. U yerdagi hamkasblarimiz bilan jonli va masofaviy aloqalarni tizimli ravishda kuchaytirdik. Eʼtiborlisi, viloyatlardagi murakkab jarrohlik amaliyotlariga chet ellik malakali mutaxassislar ham jalb etilmoqda. Bu borada salmoqli qadamlardan biri Samarqandda qoʻyildi. Turkiyalik professor Said Oʻzturk ishtirokida parkinson kasalligi bilan roʻyxatga olingan bemorning bosh qismiga “chip” oʻrnatish operatsiyasi oʻtkazildi. Ikki-uch yil ichida boshqa hududlarda ham bu amaliyotni tatbiq etamiz.

Kuzatishlar natijasiga koʻra, boshqa davlatlarda davolash koʻrsatkichining yuqoriligi shifokorlar malakasi yoki iqtisodiy barqarorlikka emas, aynan kasallikni ilk davridayoq aniqlashga bogʻliq ekan. Bu oʻrinda odamlarning tibbiy madaniyati ham muhim rol oʻynaydi. Xorijda shikoyat bor-yoʻqligidan qatʼi nazar, fuqarolar belgilangan muddatda tibbiy koʻriktan oʻtadi, turli kasalliklar boʻyicha tahlillar topshiradi. Agar sogʻligida salbiy oʻzgarish sezsa, darhol shifoxonaga murojaat qiladi. Chunki har qanday kasallikni boshlanish davrida davolash juda katta samara beradi.

Bosh miya onkologik kasalliklari ham ana shunday erta aniqlashni talab qiladi. Buning ortidan kelib chiqayotgan nogironlik va oʻlim koʻrsatkichlarini kamaytirish har bir neyrojarrohning asosiy maqsadidir.

– Bosh miya onkologik kasalliklarining kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etish usullari hali u qadar aniqlangan emas, – deydi qariyb uch mingga yaqin jarrohlik amaliyoti oʻtkazgan Abdurahmon Norov. – Lekin ehtiyot choralari bor. Avvalo, miyani koʻproq ishlatishtirish – kitob oʻqish, fikrlash, turli vositalar bilan charxlab turish kerak. Shuningdek, stress va

depressiyadan himoyalalanish, miyani ilgʻor faoliyatga yoʻnaltirish koʻplab kasalliklar rivojlanishining oldini oladi. Meʼyordan yuqori boʻlgan qon bosimi ham miya faoliyatining buzilishi, hujayralarining jarohatlanishiga olib keladi. Mavzuga aloqador boʻlgani uchun parhez qilayotgan yurtdoshlarimizga muhim bir masalani eslatib oʻtmoqchiman. Tibbiyotda autofagiya degan atama bor. Kengroq aytsak, organizm och qolganda oʻzini oʻzi isteʼmol qilishga oʻtadi va birinchi galda kasal hujayralarni yeydi, degani. Bu tomondan parhez tutishning foydali tarafi bor, albatta. Lekin notoʻgʻri parhez, ayniqsa, suyuqlik kam ichish organizm qurishiga olib keladi. Qon quyuqlashadi va aylanma harakati pasayadi. Bu esa miyaga kislorod borishini kamaytiradi. Bugun baʼzi neyroxirurgik kasalliklar shu sabab bilan ham koʻpaymoqda. Yana bir narsani aytib oʻtishim lozim: oilada bolalarga nisbatan zoʻravonlik, oʻsmirlarning uzoq vaqt ruhiy tushkunlikda qolib ketishi miya rivojlanishiga




salbiy taʼsir qiladi. Garchi koʻpchilikka yoqmaydigan ogohlantirish – uyali aloqa vositalarida soatlab suhbatlashish bosh miyada oʻsimta oʻsishiga sabab boʻladi.

Shifokorning jonkuyarlik bilan tushuntirishi bejiz emas. Miya tananing bosh shtabi va eng koʻp energiya sarflaydigan muhim aʼzodir. Soʻzlash, harakatlanish, taʼm va hid sezish kabi xususiyatlar insonning bosh miyasida joylashgan oʻn ikki juft nerv orqali boshqariladi. Bu esa miyaga tigʻ tekklizishning qanchalik xavfli va murakkab ekanini koʻrsatadi. Oʻta masʼuliyatli bu soha xodimi uchun birdan bir ulugʻ maqsad – insonni asrash kerak!

Shu maʼnoda davolashda jarrohlik amali-

yotigina emas, yuqori texnologiyalardan foydalanish ham talab etiladi. Bugun neyroxirurgiya diagnostikasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu yoʻlda barcha tuman-shaharlarda magnit-rezonans hamda kompyuter tomografiyasi faoliyati yoʻlga qoʻyilgan.

Shuningdek, miyaning turli qismlarini aniq tekshirish va operatsiyalarni oldindan rejalashtirish uchun funksional tomografiya, miyadagi qon tomirlarini koʻrish va anevrizmani aniqlash uchun angiografiya kabi uskunalaridan unumli foydalanilmoqda. Kateter orqali miya ichini operatsiyasiz davolash, qon tomirlardan borib tromblarni olib tashlash uchun tromboektaksiya, miyaga stimulyator qoʻyish amaliyotlari, virtual reabilitatsiya dasturlari joriy etildi. Istiqbolda esa miya oʻsmalari va qon tomir patologiyalarini operatsiyasiz davolash, robotlar yordamida nozik jarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli oʻtkazish, asab toʻqimalarini tiklashdek muhim vazifalar kutmoqda. Respublika neyroxirurgiya ilmiy markazi esa mana shunday dolzarb jarayonlar



markazida turib, 500 ga yaqin tibbiyot xodimi bilan aholi salomatligini saqlashga xizmat qilmoqda.

– Bu yerda asosan surunkali kasallikka chalingan bemorlar yotqizilib, rejali ravishda operatsiyaga olinadi, – soʻzida davom etdi markaz direktori oʻrinbosari Abdurahmon Norov. – Muassasamiz davolash bilan bir qatorda soha mutaxassislarining yangi avlodini tayyorlash, innovatsion ishlarnmalar, yangi loyihalarni oʻrganib, tibbiyotga tatbiq qilish bilan ham birday shugʻullanib kelmoqda. 130 oʻringa moʻljallangan markazda bugun yaqin va uzoq davlatlardan kelib davolanayotgan bemorlar ham koʻpchilikni tashkil etadi. Markazda kam

invaziv operatsiyalar, interarterial kimyoterapiya amaliyoti ham qoʻllanilmoqdaki, ilgari bemorlar bunday amaliyotlar uchun chet elga borishga majbur edi. Yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlarining innovatsion turlarini dadil joriy qilish orqali koʻplab bemorlar jiddiy kasalliklardan butunlay forigʻ boʻlmoqda.

Aholimizning ogʻriqli nuqtasi shundaki, hali-hamon ayrimlar xorijda davolanishni tanlayapti. Vaholanki, tibbiyot markazlarimiz holati, shifokorlar salohiyati xalqaro klinikalarnikidan past emas. Shunchaki, bemorlarni boshqa davlatlarga olib ketish bilan shugʻullanuvchilarning chaqiriqlari koʻpchilikni chalgʻitmoqda. Chunki ularning xorijiy klinikalar bilan moliyaviy kelishuvlari bor, har bir olib borgan mijozi uchun kasallik turiga qarab ulush oladi. Soddadil xalqimiz esa oʻzlari bilmagani holda, valyuta chiqarish orqali boshqa mamlakat tibbiyoti, uning iqtisodiy rivojiga hissa qoʻshadi. Deylik, oʻzimizning xususiy tibbiyot muassasalarida oʻn million soʻmga bajariladigan amaliy ish xorijda yuz million soʻmga tushadi. Garchi shart-sharoitlar ham, protsedura ham ularnikidan qolishmaydi, azbaroyi tashviqotning zoʻrligidan bemor xorijga borishni ixtiyor qiladi.

Soʻnggi yillarda bu holat 10–15 foizga kamaygan. Biz bemorga oʻzimizda davolan yoki boshqa shifokorga murojaat qilma, deya olmaymiz. U oʻzi istagan tibbiyot muassasasiga murojaat qilish huquqiga ega. Bu masaladagi muammomiz milliy tibbiyotimiz targʻibotini koʻngildagiday yoʻlga qoʻya olmayotganimizda deb oʻylayman. Odamlar koʻp holda shifokorning ijtimoiy tarmoqdagi faolligiga qarab unga yuzlanadi. Har bir tibbiyot markazi piar menejerlarini ishga solsa, amalga oshirilayotgan ishlar targʻibotini kuchaytirsa, bemorlarimizga xastalikni oʻzimizda bemalol davolash mumkinligi, qaytada bu ham moliyaviy, ham jismoniy jihatdan qulay ekanini yetarli darajada tashviq qilsa, kifoya.

Shifokorning fikrida jon bor. Muvaffaqiyatlarni koʻrsata bilish ham davr talabi. Zero, “qachondir, kimdir uni kashf etmaguncha hayot formulasini oʻzi bilan olib” ketgan Aleksandr Belyayevning Doueli aytganiday, “sof ilmiy tafakkur butun insoniyatning toleyi”dir. Jumladan, tibbiyot taraqqiyoti ham.

Muhayyo RUSTAMOVA



Ushbu QR-kodni skanerlang va ijtimoiy tarmoqlarda tomosha qiling!



GURUNG

ISTE'MOLCHI EMAS, KASHFIYOTCHI KERAK

Akademik Mirziyod Mirsaidov bilan suhbat



Qadimgi Yunonistonning mashhur olimi Arximed o'z hukmdori Hiron II bilan kechgan suhbatda: "Menga tayanch nuqtasini topib bersangiz, butun kurrayi zaminni ham siljitib yuboraman!" degan ekan. O'shanda chet ellik "mexanikaning otasi" yaratgan qurollar Sirakuza mudofaasida dushman kemalarini ag'dargan kunlarda insoniyat yana bir muhim haqiqatni angladi: nazariya hayotga ko'chsa, millat taqdirini o'zgartirishga qodir...

Yurtimiz yuqori seysmik faollikka ega hududda joylashgani ma'lum. Shu bois mexanika va injenerlik ilmi nafaqat barqaror rivojlanish, balki millat xavfsizligi uchun ham asosiy tayanch hisoblanadi. Bu esa ilmiy izlanishlari bilan milliy maorifimizga sezilarli hissa qo'shayotgan olimlarning fikr-mulohazalarini kengroq yoyishimiz kerakligini bildiradi. Shu bois O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, texnika fanlari doktori, professor Mirziyod Mirsaidov bilan mexanika va injenerlik sohasidagi izlanishlar, yutuqlar va kelgusida qilinishi shart bo'lgan ishlar to'g'risida suhbatlashdik.

Umrining oltmish yilini ilimga bag'ishlagan fidoyi ustoz so'zini shunday boshladi:

– 1991-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Mexanika va kompyuterli modellashtirish" kafedrasini mudiri lavozimida ish boshlaganimda, ahvol juda abgor edi. Shu o'ttiz to'rt yilda kafedra nomidan tortib maqsad-u vazifalarigacha tubdan yangilandi. Hozir bu yerda eng so'nggi rusumdagi kompyuterlar, ilmiy modellashtirish dasturlari, laboratoriya uskunolari, mexanika va materiallar bo'yicha turli trenajyorlar, mikroskoplar va spektrometrlar mavjud. Shu bilan birga boy ilmiy kitobxona, elektron qo'llanmalar va zamonaviy darsliklar ham ishlab chiqildi. Shuning uchun bo'lsa kerak, talabalarimiz har yili xalqaro fan olimpiadalarida g'alaba qozonib kelmoqda. Aslida, kafedramizda o'qitiladigan fanlar juda murakkab va ko'p qirrali: nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, inshootlarning seysmik barqarorligi va turli injenerlik masalalarini EHM (elektron hisoblash va modellashtirish) dasturlari orqali tahlil qilish kabi sohalarni qamrab oladi. Ko'ryapsizki, bu fanlarning ba'zilarini tushunish u yoqda tursin, hatto nomini aytish qiyin. Ammo shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatlar aynan shu fanlar oldida qarzдор.

Kafedramizda talabalar zamonaviy injenerlik tahlili, materiallarning mexanikasi, seysmik xavfsizlik va kompyuterli modellashtirish sohasida mutaxassis bo'lib

yetishadi. Asosiy maqsadimiz – davlatimiz uchun yuqori saviyali, zamonaviy talablarga javob bera oladigan malakali muhandislarni tayyorlash. Bitiruvchilarimiz suv xo'jaligi, mexanika, elektrotexnika va avtomatika sohalarida faoliyat yuritadigan injener bo'ladi. Ular to'g'onlarni ekspluatatsiya qilish, turli mashinalar yaratish hamda qishloq xo'jaligi uchun zamonaviy mexanizmlar ishlab chiqish kabi sohalarda mustaqil va samarali mehnat qiladi.

Ma'lumki, universitetimiz xalqaro reytingda 469-o'rinni egallagan. Birgina AQShda 5800 dan ortiq universitet borligini hisobga olsak, bu juda yaxshi natija. Bundan tashqari, TIQXMMI Markaziy Osiyodagi oliy ta'lim muassasalari orasida 7-o'rinda turib, ilmiy salohiyat va akademik obro'ning mintaqaviy darajada ham e'tirof etilganini namoyish qiladi.

Bu yil universitetimizda xorijlik talabalar soni yanada ortishi kutilmoqda. Hozirgacha ikki mingga yaqin xorijlik talabgor hujjat topshirgan. Ular nima uchun bizni tanladi? Javobi oddiy: universitetimiz katta ilmiy va ta'lim obro'ygina ega. Malayziya, Ozarbayjon, Turkiya, Xitoy, Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'izistondan tolibi ilmlar

maktabni bitirgan bolalardan oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinganlar soni 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 42 foizga ko'tarildi. Bu, o'z navbatida, yoshlar orasida ta'limga ishtiyoq ortganini ham ko'rsatadi. Endilikda abituriyent agar beshta oliy ta'lim muassasasining birortasiga ham qabul qilinmasa, oltinchi imkoniyat ham taqdim etilyapti. Biroq, to'g'risini aytish kerak, hamma ham haqiqiy bilim va salohiyat uchun o'qiyotgani yo'q – ba'zi yoshlar faqat diplom uchun harakat qiladi. Ular ba'zan darsning o'rtasida "Bu fan bizga nega kerak?" deya luqma tashlaydi. Ammo haqiqat shundaki, har bir fan yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni muammolarni hal qilishga o'rgatish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Juda ko'p o'ylayman, bilasizmi, agar mamlakatimizda talabalarning 40 foizi fidoyi, fanga mukkasidan ketgan bo'lsaydi, biz allaqachon rivojlangan mamlakatlar qatorida bo'lardik. Haliyam kech emas, tinimsiz mehnat qilish, izlanish kerak.

– **Kuni kecha "Yangi O'zbekiston" bog'ida 2000 nafar yosh muhandis bir vaqtning o'zida**



kelyapti. Hozirgi kunda bizning yo'nalishga chet ellik 58 nafar talabgor hujjat topshirgan, ammo qabul 25 nafar bilan cheklangan. Demak, raqobat yuqori".

– **Ustoz, hozir faxrlanarli natijalarni sanadingiz, rahmat. Albatta, bu yaxshi. Ammo ayting-chi, o'z talabalarimiz ham bu imkoniyatdan yetarlicha foydalanayotmi? Oldimizdan oqib o'tayotgan daryoning qadriga yetayapmizmi?**

– Ochig'i, bu haqda men ham ko'p o'ylayman. Shuncha sharoit bo'lsa-da, ba'zi yoshlar orasida negadir injenerlik, xususan, mexanikaga qiziqish past, sustkashlik va biroz befarqlik bordek. Balki bu fanning og'irligi va uzoq muddatli mehnat talab qilishi bilan bog'liqdir. Bilasiz-ku, hozir ko'p yoshlar telefon va mashina kabi behuda hoyu havaslarga berilib ketyapti. Vaholanki, ular foydalanib turgan buyumlarni o'zlari kabi oddiy odamlar ilm evaziga yaratgan. Shuning uchun faqat iste'molchi emas, yaratuvchi va kashfiyotchi ham bo'lish kerak. Rivojlangan mamlakatlardan ortda qolmaslik uchun bilim va ilmiy salohiyatga intilish har birimiz uchun muhim.

Shukrki, O'zbekistonda oliy ta'limga bo'lgan qiziqish va imkoniyatlar sezilarli darajada oshdi. 2017-yilda

1946 ta kichik robotni yig'ib, rekord qayd etdi. Bu jarayon yoshlarimizning ilmiy-texnik salohiyati, izlanuvchanligi va jamoaviy hamjihatligini yana bir bor namoyish qildi. Ma'lumki, ushbu rekordda Sizning talabalarigiz ham faol qatnashdi. Demak, hali umid bor, shundaymi?

– Albatta! Masalan, O'zbekistonning "Scopus"dagi reytingi 2023-yilda ilmiy nashrlar soni bo'yicha 1200 ta maqola bilan 18 foiz o'sishni ko'rsatdi. Bu mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ilmiy faoliyatning sezilarli rivojlanayotganidan darak beradi. Shuningdek, "Scopus" indekslari tahliliga ko'ra, O'zbekiston o'sha yili 106 x-indeksi bilan Osiyo mintaqasida 22-o'rinni egalladi. Demak, bizda yaratilgan qo'llanmalar va ilmiy materiallardan nafaqat mahalliy talabalar va olimlar, balki jahon afkor ommasi ham keng foydalanmoqda. Bu esa mamlakatimizning ilmiy salohiyati va akademik obro'sini xalqaro miqyosda yanada mustahkamlaydi hamda dunyo olimlari bilan hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

– **Bu fakt va tahlillarni eshitib, menda shunday tasavvur paydo bo'ldi: demak, bizda ilm-fan nazariy**

jihatdan ilg'orlab ketgan. Uni amaliyotga joriy qilish esa...

– Aslida, bu jarayon katta xarajat va vaqt talab qiladi. Shuningdek, amalda faoliyat yuritayotgan xodimlar va mutaxassislarga yangiliklarning afzaliklari va imkoniyatlarini tushuntirish ham oson kechmaydi. Chunki ular eskicha uslub va uskunalar bilan ishlashga ko'nikib qolgan. Yangilikni qabul qilish va amaliyotga tatbiq etishni uncha xushlamaydi. Innovatsiya va ilmni hayotiy jarayonlarga integratsiya qilish murakkab, ammo zarur vazifa.

Hozir ilmiy ish olib borayotgan doktorantlardan ham amaliyotga tatbiq qilinganlik darajasini talab qilyapmiz. Tabiiyki, bu o'z-o'zidan qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Chunki nazariy bilimni hayotiy jarayonlarda amalga oshirish oson emas. Doktorantlar faqat nazariy jihatdan yetuk bo'lib qolmay, o'z tadqiqotlarini ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlarga integratsiya qilishga ham intilishi kerak. Ayni paytda bizning mutaxassislari qurilayotgan inshootlarning seysmik mustahkamligini oshirishga qaratilgan yangi usullarni ishlab chiqish ustida faoliyat olib boryapti. Bu esa nafaqat binolarning xavfsizligini ta'minlaydi, balki milliy qurilish standartlarini ham yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Azaliy hayotiy haqiqat shundaki, zamonaviy seysmik standartlarga mos binolar oddiydaridan 20–30 foiz ko'proq mablag' talab qiladi. Bu ehtiyoqlik inson hayoti va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Har o'n yilda shaharsozlik va qurilish sohasida normativ hujjatlarni yangilash zarur. Bu normalar shaharlarning zamonaviy xavfsizlik, ekologik va ijtimoiy talablarga moslashuvini ta'minlaydi. Qurilishlarda yerosti suvlari, topografik xususiyatlar va iqlim o'zgarishlari inobatga olinishi kerak. Chunki bu binolarning barqarorligi va seysmik xavfsizligi uchun muhim. Shu bilan birga, zamonaviy shaharsozlik standartlari faqat texnik qoidalardan iborat emas, balki shaharning rivojlanish strategiyasi, infratuzilma va aholining hayotiy sharoitlari bilan ham uyg'unlashtirilishi lozim. Bu yondashuv binolarning xavfsizligi, yashashga qulayligi va barqarorligini ta'minlaydi.

– **Ma'lumki, Siz 400 dan ortiq ilmiy maqola, 8 ta monografiya va 28 ta darslik chop qilgansiz. Misol uchun, ulardan qaysi biri talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishda eng katta ta'sir ko'rsatdi, degan fikrdasiz?**

– Yaqinda biz gidrotexnik inshootlarning seysmik mustahkamligini ta'minlash bo'yicha 600 betlik maxsus darslik tayyorladik. Shu bilan birga, yana bir qator monografiya va o'quv qo'llanmalar ham yozdik. Hammasi aynan yuqori saviyali injener va olimlarni tayyorlashga qaratilgan. Yana bir istagimni aytib o'tay, agar boshqa institutdan yosh olimlar kelsa, ularni ham o'qitishga tayyorman. Maqsadim nafaqat nazariy bilim berish, balki yoshlarni haqiqiy amaliyotga o'rgatish, ularning ilmiy salohiyatini va texnik imkoniyatini rivojlantirish. Shuning uchun har bir o'quvchi va talabani salohiyatini oshirishga, yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanib, o'z bilimini mustahkamlashga chaqiryapman...

Akademik Mirziyod Mirsaidov bilan suhbatdan xulosa shuki, ilm-fan va injenerlik salohiyati mamlakatning rivoji, har bir inson xavfsizligida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ustoz ta'kidlaganidek, yoshlar iste'molchigina emas, yaratuvchi va kashshof ham bo'lishlari lozim. Shundagina ular bilim va ilmiy salohiyatidan to'liq foydalanib, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi.

Sh.IBROHIMOV suhbatlashdi.

JAHON AYVONIDA

ISROIL G'AZOGA HUJUM BOSHLADI

Isroil mudofaa armiyasi G'azo shahriga hujum boshladi, deb yozmoqda "The Jerusalem Post" nashri armiya vakili, brigada generali Efi Defringa tayanib.

"Qo'shinlarimiz allaqachon shahar atrofini nazorat qilmoqda", dedi Defrin. Uning so'zlariga ko'ra, Isroil harbiylari G'azo aholisining xavfsiz joylarga ko'chib o'tishi, gumanitar va tibbiy yordam olishi uchun harakat qilmoqda.



G'azoga hujum Falastinning HAMAS guruhi vakillari garovda tirik qolgan 10 kishini ozod qilishi va 60 kunga o't ochishni to'xtatishni taklif qilgan bir paytda boshlandi, deb ta'kidladi "The Jerusalem Post".

CHOYCHAQANI QONUNIYLASHTIRISH TAKLIFI

Qirg'iz Respublikasi adliya vaziri Ayaz Bayetov tibbiyot xodimlariga "Ixtiyoriy qo'shimcha to'lov" mexanizmini joriy etishni taklif qildi. U davlat tizimini byurokratiyadan xoli qilish bo'yicha idoralararo komissiya yig'ilishida shunday tashabbus bilan chiqdi, deb yozmoqda "24.kg".



"Ofitsiantga choychaqa – yaxshi ohang, do'xtirga choychaqa – pora, bu noto'g'ri! Moliyaviy avtonomiya doirasida ixtiyoriy qo'shimcha to'lov tushunchasini idoralararo komissiyaga ko'rib chiqish uchun yuboramiz", deya Bayetovning so'zlarini keltirdi nashr.

"DUNYONING ENG MEHRIBON SUDYASI" VAFOT ETDI

Suddagi ta'sirli chiqishlari bilan tanilgan sudya Frenk Kaprio 88 yoshida oshqozon osti bezi saratonidan vafot etdi.



AQShning Rod Ayland shtatidagi Providens shahridan bo'lgan sudyasi "Providensda tutilganlar" dasturi orqali taniydi, uning lavhalarini ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan.

Kaprio o'z sud zalini "odamlar va ishlarni mehr va rahm-shafqat bilan kutib oladigan joy" deb ta'riflardi. Uni sud zalidagi harakatlari uchun "dunyoning eng mehribon sudyasi" deb atashgan.

AFG'ONISTONDA AVTOHALOKAT



Afg'onistonning Hirot viloyatida Erondan qaytayotgan avtobus mototsikl va benzin

tashuvchi mashina bilan to'qnashib ketishi oqibatida 79 kishi halok bo'ldi. Bu haqda Afg'oniston IIV matbuot kotibi Abdul Matin Kaniga tayanib "Independent" nashri xabar berdi.

Xabarda aytilishicha, qurbonlarning 19 nafari bolalar bo'lgan. Avtobusdan faqat uch kishini qutqarib olishga muvaffaq bo'lingan.

KITOB SOLIG'I BEKOR QILINDI

Daniya hukumati "mutolaa inqirozi"ga qarshi kurashish maqsadida kitoblarga qo'yilgan 25 foizlik savdo solig'ini bekor qilishini e'lon qildi. Bu haqda "BBC" xabar berdi.



Madaniyat vaziri Jakob Engel-Shmidt ushbu soliqni bekor qilish natijasida kitoblar do'konlardan tezroq sotib olinishiga umid bildirmoqda.

"TADBIRKOR" TRAMP



AQSh prezidenti Donald Tramp Oq uyga qaytgandan so'ng 100 million dollardan ortiq kompaniya va munitsipal obligatsiyalarni sotib olgani moliyaviy hisobotlarda aks ettirildi. "Al Jazeera" xabariga ko'ra, ushbu ma'lumotlar milliarderning lavozimdagi boyligini qanday boshqarayotganini ko'rsatib berdi.

AQSh Hukumat etikasi boshqarmasi ma'lum qilishicha, Tramp prezidentlikka kirishgach, olti oyda qariyb 700 ta moliyaviy xaridni amalga oshirgan.

Xaridlar orasida Wells Fargo, Morgan Stanley va Citigroup kabi moliyaviy gigantlarning obligatsiyalari, shuningdek, Meta, UnitedHealth, T-Mobile va The Home Depot singari mashhur korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlari mavjud.

Boshlanishi 1-sahifada.

DIQQAT, QURG'OQCHILIK!

BMT tahlillariga ko'ra, 2050-yilda Markaziy Osiyo aholisi yuz million kishini tashkil etadi. Jahon banki tahlillari esa 2030-yilga borib dunyodagi 33 mamlakat suv tanqisligiga uchrashini bashorat qilmoqda. Afsuski, ular orasida O'zbekiston ham sanab o'tilgan. Bu jami iste'moldagi suvning 20 foizigina o'z hududida shakllanadigan respublika uchun jiddiy ogohlantirishdir. Suvimizning 80 foizi qo'shni davlatlar hududidan oqib kelayotgan bir davrda suvga bo'lgan munosabatimiz qanday?

Yana mutaxassisga yuzlanamiz:

– Bir yillik suv xarajimizni yuz foiz deb oladigan bo'lsak, shundan **90 foizini** irrigatsiya tarmog'iga, **4,2 foizini** ichimlik suviga yo'naltiramiz. Qolgani baliqchilik va elektr ta'minoti uchun sarflanadi.



2024-yil 16-avgust kuni Oliy Majlis Senatining 55-yalpi majlisida Suv xo'jaligi vaziri suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, sohani boshqarish mexanizmlari hamda qonunchilik bazasini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan axborot berdi. Vazirlik hisobotida keltirilgan raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman:

“...Joriy yilning o'tgan davrida jami **4,4 mlrd kub metr** suv resurslari iqtisod qilindi, shundan, **1,4 mlrd kub metr** qismi 296 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish, **1,5 mlrd kub metri** suv kam talab qiladigan ekinlar ulushini ko'paytirish hamda qo'shimcha agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish, **1,5 mlrd kub metri** esa sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash va boshqa tadbirlarni amalga oshirish hisobiga tejaldi”.

Endi yana bir raqamni keltirsam, “O'zsvu-ta'minot” AJ bir yilda umumiy hisobda **2,2 milliard kub metr** suv beradi aholiga.

Aslida, tejashni ancha avval boshlashimiz kerak



edi. Vazirlik taxminlariga ko'ra, “2030-yilga qadar **50 foiz maydonlarda tomchilatib sug'orishga**” o'tilar ekan. Jahon bankining tahlillaridagi fikrlar qarama-qarshiligini o'zingiz ko'rib turibsiz. Suvga bo'lgan munosabatimizni shu bugundan, hozirdan boshlab o'zgartirishimiz kerak, qarorlarga qat'iy

SUV TEKIN... EMAS

kutilyapti. Shu muammoni hal qilish uchun vazirlikka o'sha miqdordagi suvni tejash vazifasi yuklatilgan. Bu maqsadda 2030-yilgacha barcha yer maydonlarida suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etiladi, agrotexnik ishlar amalga oshiriladi, shuningdek, kanallar va ichki sug'orish tarmoqlari betonlashtiriladi (chunki suv yo'qotishning asosiy sababi – shu kanallar).

Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalar keng joriy etilyapti. Bu usul orqali endi ekinlarga talabdan 25–30 foizga kam suv berib ham hosil hajmini 30–40 foizga oshirish mumkin. Bir gektar yerdagi ekindan kutilgan hosilni olish uchun o'simlikka zarur suv o'z miqdorida yetkazilishi shart. Shu bilan birga, kam suv talab qiladigan ekinlar ulushi yil sayin ortib boryapti. Bu chora-tadbirlar amaliyotda izchil ko'llanilyapti.

Bizni qiziqtirgan yana bir masala suv narxi-ning oshishi bo'ldi. “O'zsvu-ta'minot” AJ bosh mutaxassisi Akmal Qodirovdan quyidagicha izoh oldik:

– O'zbekistonda 1 kubometr suv narxi – 2600 so'm. Ma'lumot uchun, 1 kubometr 1 tonnaga teng. Tasavvur qilyapsizmi? Bu dunyo bo'yicha eng arzon narx hisoblanadi. Bu summaga siz do'kondan yarim litr suv sotib olasiz. Endi oradagi farqni solishtiring, yarim litr qayoqda-yu, ming litr qayerda? Ichimlik suvi narxi ko'tarilishiga asosiy omillardan biri elektr energiyasi narxi oshishidir. Suvni nasoslarda aylantirish va uzun tarmoqlar orqali yetkazishda katta miqdorda elektr sarflanadi. Shu bilan birga, tozalash jarayonlari va eski infratuzilmani yangilash xarajatlari ham ortib boryapti. Shuning uchun narxlar biroz oshdi.

SUV YOQALAB

Xonadonimizgacha pokiza holda yetib keladigan obi hayotning necha dumalab toza bo'lishini bilish uchun ijodiy jamoamiz bilan suv boshiga, ya'ni Qibray tumani “Qodiriya” suv inshootiga bordik.

Mazkur majmua viloyatning Qibray, Toshkent va Zangiota tumanlari aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Kunlik quvvati 100 ming metr kub bo'lib, 350 ming aholini toza ichimlik suvi bilan uzluksiz ta'minlaydi. Bu yerning rahbari Elmurod Beysinovning aytishicha, Bo'zsvu kanalidan nasoslar orqali tortilgan suv 4,8 metr balandlikdagi, 2 ming 700 kub metrli hovuzga

quyiladi va shu yerda tozalash boshlanadi.

Avvalo, unga chiqindilarni cho'ktiruvchi regitniy moddasi qo'shiladi. Biroz tindirilgach, yonidagi 34 ming kublik hovuzga, ya'ni ikkinchi bosqichga o'tkaziladi. Undan so'ng filtrlanadi. Nihoyat, 12 ta filtr apparatdan eson-omon o'tgan toza ichimlik suvi yig'ish havzasiga kelib tushadi. Jarayon oxirida suvga osh tuzidan olinadigan gipoxlorid natriy eritmasi qo'shiladi.

Laboratoriyada aholiga yuboriladigan suvdan har soatda namunalar olib, maxsus tekshiruvdan o'tkazib turiladi.

Navbatdagi manzil Toshkent tumani aholisiga ichimlik suvi yetkazib berish, to'plash va tarqatishga ixtisoslashgan “Keles” suv inshooti bo'ldi. Uning faoliyati bilan qisqacha tanishtirgan “Toshkent viloyati suv ta'minoti” AJ direktori o'rinbosari Ahmad Eshpo'latov, avvalo, o'tgan davrda Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi loyihalar yordamida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari haqida gapirdi:

– Bundan oldin Toshkent tumani aholisining 78,9 foizi jadval asosida ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lsa, tizimli ishlardan so'ng 90,8 foiz aholi doimiy ravishda ichimlik suviga ega bo'ldi. Shundan 2 ming 443 ta xonadon ilk bor ichimlik suv tarmog'iga ulandi. Barcha suv ko'tarish inshootlarida Germaniyaning aqlli hisoblagichlari, zamonaviy elektr tejamkor nasos agregatlari o'rnatilgan. Bu esa toza ichimlik suvini belgilangan tartibda aholi xonadonlariga yetkazib berishga xizmat qiladi.

Ta'kidlanishicha, 1979-yilda qurilgan mazkur inshoot 13 ming kishiga ichimlik suvi yetkazib berish quvvatiga ega bo'lgan. Keyinchalik ehtiyoj ortgani sababli ko'plab muammolar yuzaga kela boshlagan. Hatto, Qozog'iston bilan chegaradosh qishloqlarda umuman ichimlik suvi bo'lmagan. Mahalliy aholi suvni tashib kelish, quduqlarda saqlash orqali foydalangan. Mazkur suv inshooti bilan tanishgach, bir paytlari tarmoqlarda yoyilgan “Kelesga borsang, yomg'ir suviniyam qadriga yetasan” kabi pisanda aralash hazillarning davri o'tganiga amin bo'ldik.

QAYDAN KELIB, QAYGA KETAR?

Mana, ichimlik suvining qaydan kelishini bildik, ammo qayga ketadi ishlatilgani? Savollarimiz bizi “Salar” oqava suv tozalash inshootiga boshladi. Toshkent shahar “Suvta'minot” AJ matbuot kotibi Ravshan Yoqubjonov kanalizatsiya tarmoqlari qamrovi, shuningdek,

sohadagi mavjud muammo va yutuqlar haqida ma'lumot berdi.

– Ayni paytda respublika bo'yicha kanalizatsiya xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasi 22 foizni tashkil etsa, poytaxtimizda bu ko'rsatkich 95 foizga yetgan. Yaqin kelajakda ushbu ko'rsatkich yana ko'tariladi. “Salar” inshootiga kelsak, u avvalo, hammom, oshxona va hojatxonadan chiqadigan oqava suvlarni tozalash uchun mo'ljallangan. So'nggi yillarda tadbirkorlik va ishlab chiqarish hajmining ortishi, shuningdek, aholining kanalizatsiyadan noto'g'ri foydalanishi tizimning izdan chiqishiga sabab bo'lyapti. Ayrim korxonalarda qoidada belgilangan birlamchi tozalash tizimi o'rnatilmagani sababli sanoat chiqindilari to'g'ridan to'g'ri kanalizatsiya tarmoqlariga uzatilyapti. Bu holat inshootlarimizning texnik jihatdan zararlanishiga va quvvilar ish qobiliyatining pasayishiga sabab bo'lyapti.

Shuningdek, aholi tomonidan kanalizatsiya-ga tashlanayotgan yirik hajmdagi chiqindilar, gigiyena vositalari va turli buyumlar nasos stansiyalari hamda qimmatbaho filtr uskunalarining ishdan chiqishiga olib kelyapti. Mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida yangi texnologiyalar joriy etilishi, qo'shimcha uskunalar o'rnatilishi va filtr to'rlari qo'yilishi bo'yicha ishlar amalga oshirilyapti.

Toshkent shahrining kengayishi, aholi sonining o'sishi va ishlab chiqarish hajmining ko'payishi mamlakat taraqqiyoti uchun muhim omillar hisoblanadi. Biroq sanitariya va ekologiya talablariga zid holda rivojlanishga yo'l qo'yilmasligi shart.

XULOSA QILIB AYTGANDA...

Koinotga chiqarilgan fazo tadqiqot kemalari yangi sayyoralarda birinchi o'rinda suv bor-yo'qligini aniqlashga harakat qiladi. Chunki suv nafaqat inson hayotining asosi, balki davlatlar taraqqiyoti uchun ham eng muhim resursdir. Ajdodlarimizdan meros bo'lgan bu ulug' ne'matni kelajak avlodlarga ham toza yetkazish har birimizning insoniy burchimizdir.

Vasila HABIBULLAYEVA, Shahriyor IBROHIMOV



Ushbu QR-kodni skanerlang va ijtimoiy tarmoqlarda tomosha qiling!

MULOHAZA

BOSHBURTSIZ BEVATANLAR

Esimda, o'rta maktabning yuqori sinfida ta'lim olayotganimizda adabiyot muallimimiz proletar kuychisi Mayakovskiyning “Sovet pasporti haqida she'r”ini baland pardalarda o'qigan va yodlab kelishni topshirgandi. She'r xiylga katta va sarbast janrida yozilgani uchunmi, yodlash oson kechmagan.

O'shanda “Pasport degani qanday narsa? Siz ko'rganmisiz?” deb so'raganimda qishlog'imizdan chiqqan birinchi oliy ma'lumotli muallim savolini kutgandek kostyumi yon cho'ntagidan qip-qizil tusdagi hujjatni olib, boshi uzra baland ko'targancha “Men sovet ittifoqi grajdani ekanimdan faxrlanaman! Bu pasport bilan dunyoning istalgan davlatiga bora olaman!” degandi.

Shu holat ta'sirida kechqurungi ovqat ustida otamdan “Sizda pasport bormi?” deb so'raganimda ajablanib qaradi: “Pasport degani ne? Kimdan eshitding?”

Adabiyot muallimi ko'rsatgan qizil tusdagi hujjat haqida nimadir deb ting'irladim, bu hujjat bilan dunyoning istalgan davlatiga borish mumkinligini aytdim.

Otam qo'l siltadi: “Biz Moskva ostonasida urushga kirib, nemislarni haydab Polsha, Vengriyadan o'tib Berlingacha bordik. Hech kim bizdan pasport deganini so'ragani yo'q. Ko'p gap sotmay ovqatingni ye!”

Otam 1946-yil urushdan qaytgani buyon kolxozda traktorchi qilardi. Esimni taniganimdan beri ikki-uch marta jiyda, gurunch sotish uchun Ozarbayjon, Tojikiston shaharlari va o'zimizning Buxoroga borganini bilardim...

Otam men aytgan o'sha pasportni 1976-yili – pensiyaga chiqish arafasida oldi. Onamning qo'lga pasport degani 1982-yilda tegdi. Uch opam va menga o'rta maktabni bitkazish arafasida pasport berishdi.



Pasport – mustaqil davlat ramzlaridan biri. Bu hujjat davlat fuqaroligini belgilabgina qolmasdan, davlatning o'z fuqarosioldidagiburchivamajburiyatlarini ham huquqiy jihatdan aks ettiradi va kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi pasportining so'nggi varag'idagi “Ushbu pasport egasi O'zbekiston Respublikasi himoyasidadir”, degan jumlni eslang!

Bolsheviklar 1917-yil noyabrda davlat to'ntarishidan so'ng hokimiyat tepasiga keladi. Bu orada fuqarolar urushi boshlanadi. SSSR atalmish “ixtiyoriy-majburiy” tuzilma 1922-yil 30-dekabrda paydo bo'ladi. 1924-yilga kelib respublikalar o'rtasida “milliy chegaralanish” degan hududiy taqsimlash siyosati o'tkaziladi. Bunda sovetlar “Bo'lib tashla va hukmronlik qil!” degan qadim varvarlik ustqurmasiga asoslanadi.

Bolsheviklar hukumat tepasiga kelganidan bir muchaldan ortiq muddat o'tgach, nihoyat pasport tizimini joriy qilishga kirishgan. Bunga bosh-adog'i yo'q yurtda jinoyatchilik haddan ziyod oshib ketgani sabab. Negaki, o'tgan davrda bir o'lkadan boshqa o'lkaga borishni xohlagan fuqarolarga qishloq

soveti (yoki shahar soveti) bir varaq qog'oz bergan. Bu qog'ozda fuqaroning ismi-sharifi va qaysi joyda yashayotgani qayd qilingan, surati bo'lmagan. Aynan suratsiz va soxtalashtirish oson bo'lgan bir varaqlik fuqarolik hujjati jinoyat omlari vakillariga qo'l kelgan. Ular butun mamlakat bo'ylab tekzor ko'chib, g'oyatda shov-shuvli: oziq-ovqat omborlari va do'konlarni tunash, o'ziga yoqmagan kishilarni o'ldirish va boshqa turdagi jinoyatlarni sodir qilishgan. Rasmiy ma'lumotlarda 1927–1929-yillarda sobiq ittifoqda jinoyatchilik yiliga o'rtacha 60–80 foizgacha o'sishi kuzatilgan.

Sovet hukumati ilk bora chiqargan qarorda pasport Moskva, Leningrad, Kiyev shaharlari va Yevropa davlatlari bilan chegaradosh hududlardagi aholi punktlarida yashovchilarga berilishi belgilangan. Buni umumaholiga solishtirsak, sovet davlati fuqarolarining 12 foizga yaqini pasport egasiga aylangan.

1942-yil bahorida mamlakatda yalpi safarbarlik e'lon qilinadi. Bunda 18 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan erkaklar urushga olinishi belgilangandi. Fuqarolik pasporti yo'q, qachon tug'ilgani noaniq, qishloq soveti daftarida qayd qilingan

yigitlarni urushga olishda adolatsizliklar ko'p uchragan, hatto 16 yoshga to'lmagan o'smirlar gavdasiga qarab, zo'rlab olib ketilgani tarixiy haqiqat.

Amakimiz Ro'zmatbiy buvaning ikki katta o'g'li taqdiri aynan pasporti yo'qligi uchun fojiali kechgan. Harbiy komissariyatdan kelgan vakil elat yigitlarini to'plab, ism-shariflarini qo'lidagi qog'ozga qarab o'qib “Ro'zmetov Karimboy oldinga chiqsin!” deganida uning o'rniga ukasi Rajabboy chiqadi. Sababi, Karimboy yoshi katta bo'lsa-da bolalikdan kasalvand o'sgan, nimjon yigit bo'lgan. Ukasi akam urushda qiynalmasin, deb uning o'rniga urushga ketadi. Va qachon, qayerda halok bo'lgani haqidagi xabar faqat istiqlol davrida chop qilingan “Xotira kitobi”da ayonlashdi.

Bir yildan so'ng Karimboyini endi ukasi ismi-sharifi ostida urushga olishadi. U 1945-yil urushdan yarador bo'lib qaytadi va bir yildan so'ng vafot etadi.

Fuqarolar urushi davri dahshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan ota-onalar o'g'il dunyoga kelganida (u paytlari ayollar uylarida tug'ishgan) bu haqida qishloq sovetiga xabar berishmagan. Qachonki, bola ko'chaga o'ynab chiqqanini bilgachgina ularni daftarga qayd etishgan. Shu sabab onamning o'zidan ikki yosh katta akasi – katta tog'am hujjatlarda singlisidan to'rt yosh kichik qilib ko'rsatilgan.

Qishloqda tug'ilib o'sgan yigit-qizlar maktabni bitkazgach, shaharlarda o'qish uchun qishloq sovetidan va kolxozdan ma'lumotnoma olishlari shart qilingan. Qishloq soveti uning qachon tug'ilgani haqida, kolxoz esa “uch yillik majburiy ishlash staji” borasida ma'lumotnoma bergan.

SSSR Oliy Sovetining 1965-yilgi qarori bilan qishloq aholisiga ham pasport berish tartibi joriy etiladi.

Bunda butun aholiga pasport berish nazarda tutilmagan. Kim yashash joyini o'zgartirmoqchi, kim esa boshqa shaharga o'qishga bormoqchi, yana kimlar keksalik nafaqasiga chiqishi munosabati bilan pasport olish majburiyatida qolishgan. Faqat 1970-yillarga kelib butun mamlakat aholisiga pasport berish tizimli yo'lga qo'yilgan. Shundayam aholining aksar qismi pasportga ehtiyoji yo'qligi sabab o'z ixtiyori bilan fuqarolik hujjatini olmagan.

Qiziq-a? Bu yoqda “Sovet davlatining yarim asrlik yubileyi” dabbada bilan nishonlangan, “kommunizm sari shahdam qadamlar bilan borayotgan baxtli sovet xalqining” deyarli yarmi fuqarolik pasportiga ega bo'lmagan. Agar AQSh va Yevropada uy hayvonlariga pasport berish o'tgan asrning elliginchi yillaridan boshlab amaliyotga aylantirilganini eslatsak, fojia bor ko'lami bilan namoyon bo'ladi (Yaponiyada hatto daraxtlarga pasport berish o'tgan asr o'talarida boshlangan).

“Rus inqilobining buyuk jarchisi” deb ta'riflangan Mayakovskiyning maktab darsliklariga kiritilgan va har bir o'quvchi yod olishga majbur bo'lgan “Sovet pasporti haqida she'r”ida poyezdda yo'lovchilardan “... yo'laklar oralab, fuqarolik pasportini tekshirayotgan burjua xizmatchisi”-ning “qip-qizil pasportni” ko'rganida hayratlanishini aks etgan satrlar bor. O'ta ko'tarinkilik bilan she'r yozgan shoir bu holatni o'z boshidan kechirgandek taassurot uyg'onadi o'quvchida. Aslida, Mayakovskiy 1922-yil 2-mayda hayotida ilk bor xorijga chiqqan – qadim Rimni tomosha qilgan. Shu yili noyabr oyida Berlin va Parijga ijodiy safar qiladi. 1928-yil may oyida avval Yevropaga, so'ng okean oshib AQShga sayohat uyushtiradi. Bu safarlarida shoir shaxsini tasdiqlovchi yagona hujjat

“Komsomolskaya pravda” gazetasi adabiy xodimi” guvohnomasi bo'lgan. “Fuqarosiz fuqaro” maqomida yurt oshgan shoir boshqa davlatlar fuqarolari nazoratchilarga taqdim qilayotgan turli rangdagi pasportlarga ko'zi tushganida ne ko'yga tushganini tasavvur qilamiz.

Va nihoyat, u ham ayrim imtiyozli shaxslar qatorida fuqarolik pasporti oladi, ammo uni boshi uzra ko'tarib faxrlanishga ulgurmaydi – 1930-yil 14-aprelda o'z joniga qasd qiladi...

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng – o'tish davrida garchi bu jarayon katta mablag' talab qilsada, pasport joriy etildi. Yangi davlatning ilk pasporti barcha fuqarolarga berildi. Esimda, o'sha jarayonda odamlarni ortiqcha tashvishlardan xalos qilish maqsadida uchastka nozirilari suratlashni olib umma-uy yurib, suratga tushirishgan va keyin tayyor pasportni tarqatishgan. Bu orada xalqaro me'yorlarga moslab elektron pasport ham chiqarildi. Xorijga chiqadigan fuqarolar uchun alohida pasport joriy qilindi. Juda qisqa fursatda bunga erishildi.

Axir pasport bayroq, gerb, madhiya qatorida davlatchilikning ramzi hisoblanadi. Bugun O'zbekiston fuqarolari dunyoning istalgan davlatlariga chiqish huquqiga ega. Davlatimiz rahbari olib borayotgan ochiqlik siyosati samarasi o'laroq, bugun 40 ga yaqin davlat bilan vizasiz rejim joriy qilingan.

Davlatimiz ramzlari haqida shoir-larimiz ko'plab she'rlar yozishgan. Ammo, pasportimiz haqida yozilgan birorta she'r'ga ko'zim tushmadi. (Bu she'rni maktab darsliklariga kiritish haqida aytmay turaylik!)

Bizga maktabda Mayakovskiy she'rini majburan yodlatgan, pasportini hamisha yonida olib yurgan muallim qarilik ta'tilga chiqqach uzoq yashadi, ammo unga biror marta xorijga chiqish nasib qilmadi.

Ro'zimboy HASAN, jurnalist



TAHLIL

Yaqin o'tmishimizga tosh otish xalqqa ham, davlatga ham foyda keltirmaydi. Aksincha, dunyo miqyosida obro'mizga putur yetadi. Qaysidir ma'noda uying siri ko'chaga chiqadi ham. Axir: "Saringni bersang ham, siringni bermal!" degan donolarcha aytilgan maqolimiz bor. Bu yerdagi "sar" so'zi "bosh" ma'nosida kelgan.

Lekin...

Yangi O'zbekiston o'tgan 9 yil mobaynida aynan qanday murakkab holatdan chiqib, qanday darajaga yetganini yorqin holda ko'z oldimizga keltirishimiz, ulkan ko'lamni boricha tasavvur etishimiz, bu borada qilingan katta sa'y-harakat, olib borilgan oqilona siyosat, bular zamidagi porloq kelajakka qaratilgan ezigu maqsadlar mohiyatini teran anglab yetishimiz uchun qiyosga ehtiyoj seziladi, albatta.

ORTGA BIR NAZAR

Mustaqillik yillarida ilm-fan va ta'lim sohasida muayyan yutuqlarga erishdik. Avvalo, fanimiz sovet mafkurasida ta'biridan batamom qutulib, o'z milliy o'zaniga tushib oldi. Davlat tilida dissertatsiyalar yoqlab, o'zimizda tashkil etilgan Oliy attestatsiyalar komissiyasi tomonidan ilmiy daraja va unvonlar oladigan bo'ldik. Oliy ta'lim sohasida ham sezilarli siljishlar yuz berdi. Yangi-yangi universitetlar ochildi va hokazo.

Biroq oliy ta'lim muassasasi professor va o'qituvchilarning jittimoiy ahvolini o'nglash imkoni bo'lmadi. Hatto, professorning maoshi bilan talabani stipendiyasi o'tirasidagi farq shu darajada oz ediki...

Shunga qaramay, hammasi yaxshi ketayotgandek edi. Ilm ahli fidoyilarcha mehnat qilib, dissertatsiyalar yozib yoqlar, kitoblar chiqarar, kelajakka umid bilan yashayotgan edi.

Asrimizning 10-yillari birinchi yarmida ham mamlakat katta byudjet tanqisligini boshladi. Bunga qarshi kurashning intensiv emas, ko'proq ekstensiv yo'llari tanlandi. Shu jarayonlarda yuz bergan ilm-fan va ta'lim bilan bevosita bog'liq uch holat bu sohani tamoman boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi.

Birinchi – butun dunyo, yuzga kirgan bo'lsa ham, jamiyatning har bir a'zosini mehnat qilishga undash bilan band bo'lib turgan bir tamaddun zamonida biz tappa-tayyor ishlab turgan ilm-fan va ta'lim sohasi vakillarini Mehnat kodeksining tegishli maddasi asosida, ya'ni pensiya yoshiga yetgan munosabati bilan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra ishdan bo'shatdik.

Ochig'ini aytib, qaysi olim 60, qaysi olima 55 yoshida shalvirab qoladi?

O'zi dunyo bo'yicha jami aholining 92 foizigina 65 yoshdan oshar ekan. Ya'ni amalda pensiyaga chiqqanidan keyin ishlash istagida bo'lganlarning juda katta qismi aynan ziyolilarga to'g'ri keladi. Pensionerlarni ishdan bo'shatish kompaniyasi, asosan, ziyolilar, birinchi galda oliy ta'lim muassasalari professor va o'qituvchilariga qarshi uyushtirilgan bir hujumdek bo'ldi.

Holbuki, jahon olimlarining tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, insonning hayotdagi eng faol, eng samarali, eng sermahsul yoshi aynan 60 bilan 70 ning orasi ekan. 70 bilan 80 ning orasi esa ikkinchi, 50 bilan 60 ning orasi, hatto, uchinchi o'rinda turar ekan.

O'n yilcha burungi tarixni kechagidek eslayman. Malaka oshirish institutlarining birida 0,5 yuklama bilan ishlab yurganimda pensiyaga chiqdim. Deylik, maoshim 500 ming so'm bo'lsa, pensiyam 400 ming so'm edi.

Ishlayotganim uchun pensiyamning yarmini qiradi. Amalda ikki barobar ishlab, bir barobar oylik olgandek bo'ldim.

Bo'shatilmaganimga shukr qilib, ishladim. Chunki qonunan pensionerni ish beruvchining tashabbusi bilan bo'shatib yuborish ham mumkin edi-da.

Soha vakili, vaziyatni ichidan bilgan kishi sifatida aytaman: ko'p olimlar o'ksidi, ularni ayni kuch-quvvatga to'lgan, katta malaka va tajriba to'plagan, yuksak mahoratga ega mahalida uyida o'tirg'izib qo'ydik. Nima emish? Pensiya yoshiga yetganlar joyni yoshlarga bo'shatib berib, pensiyasini ye-eb yotsin emish! Byudjet tanqisligining oldini olishga mas'ul o'shapaytdagi vallomatlar mamlakatda yashirin iqtisodiyotga barham berib, biznesni rivojlantirish, shu tariqa soliq tushumini ko'paytirish o'rninga o'zlariga oson bo'lgan byudjet xarajatlarni qisqartirish yo'lini tanladi.

Xo'sh, oxiri nima bo'ldi? Kim yutdi-yu, kim yutqazdi? Hech kim yutgani yo'q. Butun jamiyat yutqazdi. Bu chigaldan-chigal muammo Yangi O'zbekistonda Mehnat kodeksining shu maddasini o'zgartirish orqali butkul barham topdi.

ISLOHOTGA QARSHI
"ISLOHOT"

Islohot nomi bilan amalga oshirilgan ikkinchi o'zgarish ilm-fan va ta'lim tizimiga juda katta zarba bo'lib tushdi.

Butun dunyoda dissertatsiya yoqlab, ilmiy darajaga ega bo'lganlar maoshiga qo'shimcha qo'shiladi. Axir, biror sohani rivojlantirish

YANGI O'ZBEKISTON:
ILM-FAN,
TA'LIM va
TARAQQIYOT

uchun katta mehnat qilish kerakmi? Mehnatni munosib rag'batlantirish lozimmi? Yo ilm-fan va ta'lim sohasi vakillari farishtami – ular hamma qatori yeb-ichishi, kiyinishi, bola-chaqa boqishi, kasbi taqozo etgan ilmiy-texnikaviy vositalar sotib olishi zarur emasmi? Davlat byudjetini ko'paytirishdan ko'ra uni qisqartirishni o'ylaganlarga shu mablag' ham ortiqcha ko'rindi. Oson yo'lini topishdi: "Nega bizda olimlar ikki marta, ya'ni ham nomzodlik, ham doktorlik dissertatsiyasini yoqlashi kerak? Birato'la doktorlik yoqlab qo'ya qolsa-chi? Shunda ilmiy darajasi borlar soni keskin ozayadi va byudjet xarajatlari kamayadi-kul!" deyishdi.

2012-yil 24-iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4456-son farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqlash bekor qilindi. Hatto Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-dekabr-dagi 365-qarori bir bandida qat'iy tarzda: "Belgilab qo'yilsinki, ilmiy darajasi mavjudligi uchun lavozim maoshlariga qo'shimcha haq va boshqa ustamalar 2013-yil 1-yanvardan boshlab to'lanmaydi", deb, ilmiy daraja olishdan moddiy manfaatdorlikning yo'li butunlay to'sildi.

Xo'sh, O'zbekiston olimlari nimaning evaziga yillar umrini sarflab, dissertatsiya yozishi kerak? Yozmay qo'ya qoldi. O'sha yillari qanchadan qancha tayyor nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoyalari taqa-taq to'xtadi. Hadeganda ilmiy kengashlar ochilavermadi. Tadqiqotchilar tushkunlikka tushib, ilmiy ishga qo'l siltadi. Yashirib nima qildim, o'lgan esa a'zolarining kafedra muhokamasidan o'tgan ikki va tayyor holga kelib qolgan bir dissertatsiyasi ham tokchada qolib ketdi.

To'g'ri, dunyoda bir dissertatsiya yoqlash tizimi shakllantirilgan mamlakatlar bor. Biroq bizda bunga birdaniga o'tilmoqchi bo'lindi. Ilmiy jamoatchilik hali bunga tayyor emas edi. Bizda kechagina magistraturani bitirib kelgan yosh mutaxassisning birdaniga fan doktori dissertatsiyasi yozish tajribasi yo'q edi. Ochig'i, subyektiv tarafdin ikki dissertatsiya himoya qilib, bu darajaga erishganlarning ko'piga ichdan bu o'zgarish xush yoqmadi ham.

Boshqalarni bilmadim, men o'sha yillari shu tizim orqali fan doktori bo'lgan bir yoki ikki tadqiqotchini eshitdim, xolos. Bu gaplarimizga shubha qilyotganlar uchun statistika keltirib o'tirishning aslo hojati yo'q. 2013–2016-yillari mamlakatimizda dissertatsiya yoqlash degan narsa esdan chiqay deb qoldi hisob.

FUNDAMENTAL FAN TAQDIRI

O'zbekiston Fanlar akademiyasi 1943-yili tashkil topgan. U zamonaviy taraqqiyot uchun kerakli, muhim bir tizim. Bu jihatdan akademiyasi yo'q mamlakatlar olimlari bizga juda havas qilishadi.

Biroq 10-yillarda shu tizim ham davlat byudjetini qisqartirish tashabbuskorlari nazari-dan chetda qolmadi. Fanlar akademiyasining ko'p institutlari universitetlar qaramog'iga o'tkazildi. To'g'ri, rivojlangan davlatlar universitetlari huzurida kuchli ilmiy tadqiqot tizimi ham shakllangan. Lekin bizning universitetlar iqtisodiy-moliyaviy jihatdan hali u darajalarga yetgani yo'q-ku. Bunga obyektiv va subyektiv omillar hali pishib yetilmagan-ku.

Bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq sohalar uchun kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqot va ishlarni yaratish orqali mablag' topish imkoniga ega bo'lar. Lekin gumanitar fanlar taqdiri nima bo'ladi? Fundamental fan taqdiri-chi? Bular bilan hech kimning boshi og'rimadi.

Shukr, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bu xato ham tuzatildi: universitetlarga o'tkazilgan institutlar yana Fanlar akademiyasiga qaytarildi.

OLMA, PISH!..

Kichkinagina hovlichamizda ikki tup olma o'sadi. Biri – Yevropada yaratilgan "zamonaviy", ikkinchisi – Farg'ona viloyatida asrab qolingan eski "jaydari" nav. Keling, bevosita boshidan

o'tkazgan bir kishi sifatida hayotiy tajriba asosida bir gapni ochiq aytay: har qancha: "Olma, pish!" deganingiz bilan olma pishmaydi ham, "Tagingga tush!" deganingiz bilan, tagiga tushmaydi ham!

Bir donagina olma uzib yeyish uchun ham avval uning yaxshi navini topib, nihol ekish, keyin parvarishlash, har yili butash, oziqlantirish, zararli hasharotlardan himoya qilish kerak. Butamasangiz, samarali hosil bermaydi, yaxshi oziqlantirmasangiz, kam tugadi yo mevasini tashlaydi, dorilab turmasangiz, qurt tushadi va hokazo.

Lekin olmaning ko'nglingizga mos navini tanlash, rasamadini keltirib butash, qanday o'g'itlar bilan, qachon va qay miqdorda oziqlantirish, qanday dorilar bilan va qachon zararkunandalarga qarshi kurashish... uchun ham katta ilm zarur.

TUB BURILISH

2017-yili oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasida tub burilish yuz berdi. Yana qaytadan ikkita, ya'ni falsafa doktori va fan doktori dissertatsiyalari himoya qilish qoidasi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining "Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risida" 2017-yil 31-maydagi 239/4-son qaroridan keyin yana himoyalarga keng yo'l ochildi.

ILMGA YANA BIR RAG'BAT

Nimaga, qaysi sohaga mablag' sarflansa, u rivojlanadi. Bu bozor iqtisodiyotining oddiy, lekin "oltin" qoidasi.

Vazirlar Mahkamasining "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida" 2019-yil 24-dekabr-dagi 1030-son qarori bilan ilmiy darajaga ega mutaxassislarga yana bir katta rag'bat berildi. Unga ko'ra, bir yillik faoliyati yakuniga ko'ra belgilangan talablar asosida ilmiy va ilmiy-pedagogik faollik ko'rsatgan fan doktorlariga keyingi yil davomida 60, falsafa doktorlariga esa 30 foiz miqdorida qo'shimcha haq to'lanadigan bo'ldi. Aslida, shuning o'zi bir maoshdag gap. Ammo unga erishish uchun mutaxassis yil davomida faol mehnat qilishi lozim. Amalda oshirilgan har qanday foydali mehnat esa amalda mamlakat rivojiga qo'shilgan hissa yangilg' baholanmog'i lozim. Bunga nima yetsin!

KO'Z O'NGIMIZDAGI
O'ZGARISHLAR

9 yil ilgari mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 70 taga borar-bormas edi. Ular soni uch karra ko'paydi. Hozir nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining o'zi shuncha. Davlat oliy ta'lim muassasalarining soni ham ortdi, ularda ta'lim olayotgan talabalar soni ham. Ilgari har yuz bitiruvchining 9 foizi oliy ma'lumot olish huquqiga ega bo'lsa, bu ko'rsatkich besh barobar o'sib, o'tgan yili 42 foizni tashkil etdi.

Standartga ko'ra, ularda professor-o'qituvchilarning kamida 35 foizi ilmiy darajaga ega mutaxassis bo'lishi zarur. Axir, dissertatsiya yozib, yoqlagan kishining darsga munosabati o'zgarib, malakasi oshib, ilmiy saviyasi ko'tariladimi-yo'qmi?!

Telegramda "Uza/Ilm-fan kanali" mavjud. Kuzatib borayotgan bo'lsangiz, eh-he, amalda barcha fanlar sohasida qanchadan qancha tadqiqotchilarning dissertatsiyalari himoyasi haqida peshma-pesh e'lonlar chiqib turibdi. Bulog'ning ko'zi ochib yuborildi. Darvoqe, yaratilgan imkoniyat sharofati bilan oilamizda tokchada yillar qolib ketgan uch dissertatsiya ham yoqlandi. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekistonimiz yaqin kelajakda hamma sohada olimlari yetarli mamlakatga aylanadi. Buyuk bobolarimizning jahon ilm-faniga qo'shgan ulkan hissasi ham bizdan shuni talab qiladi ham. Biz bunga to'la halimiz.

Ba'zilarini mamlakatimizda yoqlanayotgan dissertatsiyalar miqdori shoshirib ham qo'yayotgani hech kimga sir emas. Hatto: "Son ko'paytapti-yu, sifat kam-da", deyayotganlar ham topiladi. Bo'lishi mumkin. Lekin falsafaning "oltin" qoidalaridan biri shuki, miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga, aksincha, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga olib keladi, albatta. Axir, yuz olimdan bir zo'ri chiqsa, ming olimdan yuz zo'ri chiqadi-da.

GASTERBAYTER HAM
ILMLI BO'LSIN!

Kechagina xorijda mehnat qilib, bola-chaqa boqayotganlarga panja orasidan qaradik. Axir, dunyoda mehnat bozori bitta bo'lganidan keyin, aholi bir qismining ish izlab, o'z yurtiga nisbatan rivojlangan mamlakatlarga ketishi global hodisa. Bundan, hatto, "kuchli yigirmatalik"ka kirgan Hindiston, Turkiya, Rossiya kabi davlatlar ham istisno emas. Albatta, bizdan fuqarolar ish izlab, Rossiya yoki Turkiyaga boradi, ulardan esa nisbatan yuqoriroq malaka va til bilish talab qilinadigan ishlarga Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya ketadi.

2024-yili 2023-yilga nisbatan O'zbekistonga xorijdan kelib tushgan pul o'tkazmalari 30 foizga yoki 3,4 milliard dollarga oshib, jami 14,8 milliard dollarni tashkil etdi. Ko'proq Rossiya, Qozog'iston, AQSh, Janubiy Koreya, Turkiya, Buyuk Britaniyadan mablag' yuborilgan. Albatta, bizda ishlab, o'z Vataniga pul jo'natayotganlar ham bor. 2024-yili bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 19 foizga oshib, 2,8 milliard dollarni tashkil etgan. Ayirganda ham, 12 milliard qolyapti-da.

Bugun davlat siyosatida xorijda mehnat qilayotganlarga nisbatan munosabatimiz keskin o'zgargan. Endi ilm-fan va ta'limni rivojlantirib, xorijga yanada malakali mutaxassis kadrlarni ishga yuborish tarafdorimiz. Axir, bugun dunyo bozorida jismoniy mehnatning qadri tobora tushib borayotgani, aksincha, aqliy mehnatga ko'proq haq to'lanayotganini hamma bilib qoldi.

ILM-FAN, TA'LIM VA TURIZM

Bir sohada bir foizgina o'sish bo'lsa ham, qarsak chalishimiz kerak. Axir, xalqona aytganda: "Toma-toma ko'l bo'lu'r". Yana: "Shahar birdan qirilmaydi", degan xalqona naqlimiz ham bor. Lekin agar O'zbekistonimizda shu yilning birinchi yarmida turizm sohasida 48,9 foiz o'sish bo'lgan bo'lsa, do'ppimizni osmonga otishimizga to'g'ri keladi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning dastlabki 6 oyida qariyb 5,3 million nafar xorij fuqarosi mamlakatimizga kelgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 1,7 million nafarga ko'p, ya'ni 48,9 foizga oshgan. Bular qarindoshlarni yo'qlash, sayohat, xizmat yuzasidan, davanlanish, o'qish uchun kelishgan. Xitoydan kelayotganlar soni 2,9, Yaponiyadan kelayotganlar soni 1,5, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, AQSh va Turkiyadan kelayotganlar soni 1,2, Rossiya, Germaniya, Italiya, Malayziya va Hindistondan kelayotganlar soni 1,1 karra oshgan. Ammo dunyoda 200 dan ortiq davlat – mavjud. O'zbekistonimiz yaqin kelajakda Yer yuzining turizm eng rivojlangan mamlakatlardan biriga aylanadi.

2023-yili mamlakatimizga 10,2 million kishi kelgan bo'lsa, bu yilning 7 oyida bu ko'rsatkich 6,3 millionni tashkil etdi. "BBS Travel global media" portali O'zbekistonimizni 2025-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi 25 ta manzil ro'yxatiga kiritdi.

Shuni unutmaylikki, hozirgi global dunyoda amalda hech kim bekordan-bekorga mablag' sarflab, ikkinchi bir mamlakatga kelmaydi. Bu yerda uni jalb etadigan jozibadorlik bo'lishi lozim. Kimlardir bizga qarindoshlarini ko'rgan keladi, kimlardir bizda o'qiydi, kimlarning qadimiy va boy tariximiz, boshqani ona tabiatimiz, issiq iqlimimiz, kimlarning bobarak dalalarimizda yetishtirilgan totli-toti noz-ne'matlar-u asr-asrlar mobaynida shakllangan milliy pazandachiligimiz-u lazzatidan-lazzatli toamlarimiz, yana birovni ziyoratga chorlab turgan muqaddas maqbara-yu qadamjolarimiz, ba'zilarini, hatto, mamlakatimizda rivojlangan bozor tizimi o'ziga mahliyo etadi.

Bugun amalda hamma soha, jumladan, turizm ravnaqi ham – bevosita yo bilvosita bo'lsin, ilm-fan va ta'lim ravnaqiga bog'liq. Axir, uni rivojlantirishning ham o'z sirlari, o'z ilmi bor. Bu soha taqdirini ham, avvalo, yetuk kadrlar va sohada erishilgan yuksak madaniyat, boshqacha aytganda, kompleks taraqqiyot hal qiladi.

UCH HALQA BIRLIGI

XXI asrga kelib shu narsa: "Ikki karra ikki to'rt", degandek aniq-ravshan bo'ldiki, qaysi mamlakat iqtisodiy jihatdan yuksak darajaga ko'tarila olmagani bo'lsa, bilingki, uning xalqi ilm-fan va ta'limda oqsayapti. Jadid bobolarimizning bundan yuz yillar oldin kelgan

qat'iy xulosasi ham aynan shu edi. Ular ilm-fan va ta'limda oqsaganimiz uchun mustamlaka bo'lib qolganimizni teran anglagan edi. Ilm-fan va ta'limni rivojlantirishni, hatto, istibdoddan qutulish, mustaqillikka erishishning yagona najot yo'li, deb bilishdi.

Har qanday ish oxiriga yetsa go'zal. Ilm-fanni rivojlantirsa, ta'limni kuchaytirsak, lekin qo'lga bakalavr yoki magistr diplomini olgan yoshlarni mutaxassisligiga munosib ishlarga joylashtirmasak, asl maqsad aslo amalga oshmaydi. Bizga ana shu uch soha birligi zarur. Albatta, bozor iqtisodiyoti sharoitida bu masalani, asosan, talab va taklif munosabatlari hal qiladi. Biroq davlat bu sohani muvofiqlashtirishi, oqilona yechimlarni topishga ko'maklashishi, qulay sharoitlar yaratib berishga bosh-qosh bo'lishi lozim. Bunga katta ehtiyoj bor.

KADRLAR TAQDIRI –
BOSH MASALA

8-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Unda bitiruvchilar bandligini ta'minlash bo'yicha yangi yondashuvlar belgilandi. Sohadagi kamchiliklar ham ochib tashlandi. Masalan, oxirgi yetti yilda qabul 4,5 barobar oshib, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi 42 foizga yetgan bo'lsa-da, kadrlar tayyorlash tizimi real ehtiyojga mos emasligi aytiladi. Oliy ta'limda o'qitilayotgan kadrlar bilan ish beruvchilar talabi o'rtasida farq katta. Oqibatda korxonalar chetdan tayyor mutaxassis jalb qilishga majbur bo'lyapti. Har bir talabani o'qitib, mutaxassis qilib tayyorlash uchun davlat yiliga 25–30 million so'm xarajat qilyapti. Lekin to'rt yil umrini sarflab, diplom olgan yoshlarning yarmidan ko'pi oddiy-oddiy ishlarda band.

O'zbekistonimiz jadal rivojlanish yo'lga kirdi. Yaqin yillarda mamlakatimizda 83 milliard dollarlik yirik loyihalar ishga tushishi rejalashtirilgan. Ularning hisobiga sanoatning o'zida 500 mingga yaqin mutaxassisga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bularning barchasi oliy ta'limni sohalar talabi darajasiga ko'tarish, kadrlar tayyorlash sifati va yoshlar bandligi qamrovini jadal oshirishni talab etadi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda bu boradagi ko'p yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, endi bitiruvchini ishga olganlik uchun tadbirkorlik reytingida qo'shimcha ball beriladi. Oliy ta'lim muassasasi ularni bo'sh o'rin bor korxonaga yo'naltiradi. Rektorlar vakolati va mas'uliyatini oshirish masalasi ham ko'rib chiqildi. Ularga "super kontrakt" miqdorini tabaqalashgan holda belgilash vakolati beriladi. Endi barcha oliy ta'lim muassasalari tashkiliy va akademik mustaqil bo'ladi. Bundan buyon abituriyent o'zi tanlagan 5 tagacha oliy ta'lim muassasasining biroqtasiga irolmasa-yu, lekin bali boshqa oliy ta'lim muassasasidagi to'lmagan yo'nalishga to'g'ri kelsa, ularni shartnoma asosida qabul qilish mumkin bo'ladi.

Bu yil mamlakatimizda 92 ming yosh bakalvriatni bitirdi. Ulardan 20 ming nafari magistratura va ikkinchi mutaxassislik bilan qamrab olinadi. Yana 20 mingi Bandlik vazirligi orqali staj talab qilmaydigan ishlarga joylashtiriladi. Tijorat banklari orqali 20 ming bitiruvchining biznes boshlashiga ko'maklashish rejalashtirilgan. Xususan, yoshlar bandligini ta'minlash uchun Milliy bank va Aloqa bankka bu yil 300 million dollar ajratilgan. Banklar mazkur imtiyozli kredit resursining bir qismini bitiruvchilarni ishga olgan korxonalarga ham berish tashabbusini bildirdi. Endi bunday tadbirkorlarga 5 milliard so'mgacha 18 foizli kredit beriladi. Ushbu yangi tizim nafaqat bu yilgi, balki o'qishni tugatganiga 3 yil bo'lmagan bitiruvchilar uchun ham tatbiq etiladi.

BULOQNING BOSH

Uch yil Tashqi ishlar vazirligida ikkinchi darajali ikkinchi kotib diplomatik martabasi bilan mas'ul vazifada ishlagan sobiq diplomat sifatida bir sirni ochsam, hech narsa bo'lmas.

Bir daryo toshib oqsa, dunyo uning boshini – bulog'ini izlaydi. Bir mamlakatda yangi rahbar hokimiyat tepasiga kelsa, jahon diplomatlari, avvalo, uning asl kasbi, ya'ni qaysi soha vakili ekani va bungacha qayerlarda ishlaganiga qiziqadi. Chunki bu mamlakatda kelajakda qaysi soha ravnaqiga alohida e'tibor qaratilishini oldindan prognoz qilishadi-da.

Yangi O'zbekistonda ilm-fan, ta'lim va taraqqiyot borasida olib borilayotgan tub islohotlar, yuz berayotgan quvonchli o'zgarishlar boshida Prezident Shavkat Mirziyoyev turibdi. Hech mubolag'asiz, u ilm-fan, ta'lim va taraqqiyotning jonkuyar, fidoyi tashkilotchisi va tinib-tinchimas rahnamosi. Davlatimiz rahbari mamlakat va xalqning yorqin kelajagi aynan ilm-fan va ta'lim orqali bunyod etilayotgan hamman ko'p angelaydi, tushunadi va tushuntiradi. Chunki u aslan oliy ta'lim xodimi, fanning bevosita ishlab chiqarishga aloqador muhandislik sohasida dissertatsiya yoqlagan olim. U hozirgi paytda jahonning "TOP – 500" taligiga kirgan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va melioratsiya instituti" Milliy tadqiqot universitetida kafedraning oddiy a'zosi muassasa rahbarigacha bo'lgan bosqichlarni bosib o'tgan mutaxassis.

Yangi O'zbekistonimizning ilm-fan, ta'lim va taraqqiyot sari yuz burgani hammamizga muborak bo'lsin!

Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari doktori,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
professori



“Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur.

Abdulla AVLONIY

”

TADQIQOT

TURKISTON TARIXINI YOZISH ORZUSI

Tarix milliy oʻzlikni anglash va targʻib etish uchun eng muhim vositalardan biri sanaladi. Shu bois XX asrning boshlarida jadidlar orasida Turkiston tarixini yozish masalasi maydonga chiqa boshladi. Bu xonliklarning xonadon tarixidan butunlay farqli oʻlaroq, milliy tarix xususiyatiga ega boʻlishi lozim edi.

Turkiston tarixi yozma loyiha-sining rejasini Ismoil Gʻasprali “Tarixi jadidiy Turkiston” asarida taqdim etgan edi. “Tarjimon” gazetasida 1905-1906-yillar orasi-da bosilgan bu asar shunday boshlanadi: “Yunon tarixlarida “Transoksiana,” arab tarixlarida “Movarounnahr”, bizning turkiy tarixlarda “Chigʻatoy eli, “Dashti qipchoq” va hozirgi zamonda “Turkiston viloyati” nomlari bilan tanilgan katta hududning tarixiy voqealari juda ibratlidir” (110-son).

Jadidlar sarkori asari uchun nega aynan Turkistonni tanladi? Balki butun Rusiyadagi turkiylarni, ayniqsa, ular orasida eng baland mavqega ega turkistonliklarni uygʻotish uning zamonaviy strate-giyasi uchun juda muhim faktor boʻlgani uchundir.

“Tarjimon”dagi chiqishlar besa-mar ketmadi. Turkiston jadidlari orasida milliy tarixni yozish xususida birinchilardan boʻlib Hoji Muin soʻz ochdi. 1913-yilda Orenburgda chiq-qan “Shoʻro” jurnaliga “Turkiston-ning oʻgiti va oʻtinchi” nomli qisqa, ammo maʼnoli maqola berdi. Bunda Turkistonni inson oʻlaroq soʻzlatib shunday yozadi: “*Tarix biluvchi odamlarga maʼlumdurki, man burungi zamonda ilm va madaniyat oʻchogʻi boʻlganim uchun, dunyoning eng maʼmur va masʼud oʻlkasi edim... Oh! Na boʻldiki, soʻngi bolalarim, manim ustimda bir-birlari ila soʻgʻishib, mani shul xarobazor holatina keltirdilar. Shul sababdan manimda u parloq madaniyat, ulum, sanoat, rasadxonam yoʻqoldi, bitdi. U noxalaf avlodim-da bir ham-bir ham gʻoyib boʻlib, mani-da yitdilar. Sizlardan oʻtinchim shulki,*

burungi madaniyat va umronim hamda burungi bobolaringiz turk-lar haqida ahamiyat berib bir mukammal “Turk Turkiston tarixi” kitobi tasnif qilib kelajak avlod va ahfodimga suyurgʻol etingiz” (1913-yil, 1-son).

Bu tarix hech bir kimsa tomonidan yozilmagan, lekin turkistonliklarning uygʻonishi uchun zarur vosita edi. Porloq oʻtmish bilan qoloq bugunni qiyoslash vatandoshlarini ilm-fan, madaniylashmoqqa chaqirish yoʻlidagi jadidlar afzal bilgan strategik usul edi. Bu tarixni kim yozadi – shudir masala?!

Mintaqaga sayohat qilib, koʻp maqolalar yozgan yosh muxbir Nushiravon Yavushev (1886–1917) 1914-yilda “Sadoyi Turkiston” gazetasida tarix darsligining zaru-ratini taʼkidlab shunday xulo-sa qiladi: “*Har millat va har qavm, maktablarida oʻzlarining milliy tarixlarini oʻqitmoqdadir... Lekin afsuski bizim Turkistonda bugungacha tarixga ahamiyat berilmadi. Maktablarimiz uchun tarix kitobi (Turkiston tarixi) yozil-madi. Uning uchun boʻlsa kerak maktablarimizda oʻqigan va oʻqib chiqqan bolalarimizda milliy ruh va milliy hissiyot boʻlmaydi. Zotan, tarix ahamiyatli bir ilmdir. Tarix millatning joni – ruhiy, moddiy va maʼnaviy hayotidir. Mana Turkiston tarixi, buni kim yozar?*” (1914-yil, 17-son).

Ushbu ogohlantiruvchi maqolani oʻqigan Hoji Muin darhol gazetaga javob yozadi: “*Milliy tariximizni kim yozar, degan savolni oʻqidim. Albatta, biz Turkiston turklari uchun bir mufassal va maktablarimiz uchun bir muhtasar turk va Turkis-ton tarixi lozimdir. Ammo ushbu xususda tarix yozmoq nihoyatda qiyin va ogʻir boʻlib, buni yozuvchi kishi, turk, fors, arab va rus tillarida turk va Turkiston haqida yozilgan eski va yangi kitoblarni tadqiq qilib tarix yozsa kerakdir. Hozirgacha yangi tadqiqot bilan shuhrat topgan tarixchi Turkistonda boʻlmaydi. Boʻlmagan taqdirda biz bu xizmatni yosh muarriximiz qozonlik muhtaram Ahmad Zaki afandi Validiy janoblarining qalamidan umid etamiz*” (1914-yil, 23-son).

Bundan oʻn bir kun soʻngra “Oyina” jurnalida “Turkiston tarixi kerak” nomli imzosiz bir maqola chiqadi. Maqola Hoji Muin fikrlari bilan uygʻun boʻlib, unda shunday iqror uchraydi: “*Toʻgʻrisi, tarix yozuvchi kishi turk oʻgʻillaridan hanuz maydonga chiqqani yoʻq. Rus va boshqa ovroʻpali tarixchilar, Turkiston va turklar haqida turkiy, forsiy va arabiy kitoblaridan istifoda qilib asarlar yozmoqdadir. Bizlar ulardan xabarsiz qolmoqdamiz*”. Muallif “*nihiyatda qiyin ishʼda yosh muharrir Ahmad Zaki Validiy afandining qalamidan umid etayot-ganini yozadi*” (1914-yil, 38-son).

Bu imzosiz maqola hozirgacha Behbudiygaoid,debhisoblanmoqda. Lekin bu maqolaning mazmuni Hoji Muinning “Sadoyi Turkiston”ga bergan maqolasi bilan tamoman ayni boʻlganligiga koʻra muallifi



Hoji Muin boʻlsa kerak, degan qarashimiz bor. Chunki “Tarjimon” gazetasining 1914-yil 15-iyunda bosilgan Odessa xabarleri ichida: “Oyina” jurnali muharriri **Mufti Xoʻja Mahmud Behbudiy janoblari bugunlarda Odessadan oʻtib Istanbulga yoʻllandi**”, degan xabar beriladi. Demak, Yavushevning maqolasi chiqqan vaqtda safarda boʻlgan Behbudiyda u maqolani oʻqib, javob yozish imkoni bormidi? Oʻsha vaqtda betob boʻlgan alloma Istanbulda davalanish uchun yoʻlga chiqadi. Ammo qanday boʻlsa ham Turkiston tarixi xususida uning Hoji Muin bilan bir xil fikrda boʻlgani ochiqdir.

Ikki oy keyin “Sadoyi Turkiston” gazetasining taniqli tatar muharrir-laridan Abdurauf Muzaffarzoda milliy tarix xususida shunday yozadi: “*Endi bizga ham oʻzimizning*

bobolarimizni xalqimizga tanitmoq va maktablarimizda milliy tarix darslari oʻqitmoq zamoni keldi. Shoyad bu masalaga ahamiyat beruvchilar yoʻq emasdir. Lekin milliy tarix demoq ila na sababdandir xotirga bir navi maʼyusiyat kela boshlaydir. Bu holga yoʻl ochadurgan narsa, bu toʻgʻrida ulamomizning hanuz sukut qilib turishlari va oʻzlarida boʻlgan umidli nazarlarini koʻrsata olmaganlaridir” (1914-yil, 39-son).

Bu mavzu 1915-yil avvalida yana Hoji Muin tomonidan “Milliy tarix haqida” sarlavhali juda qiziq maqolada koʻtariladi. “Oyina”da bosilgan materialda olim va adib avvalgi masalalarga bir karra qaytib, kelgusidagi ishlarni reja-lashtirishda muhim savollarga eʼtibor qaratadi. Bu savollar shun-daydir:

1. Bobolarimiz hijriy birinchi asr oxirida Islom diniga kirmishlar. Ular arablarning zoʻrlashi bilanmi, yoʻqsa, oʻz ixtiyorlari bilanmi musul-mon boʻlibdir?
2. Islom qabulidan ilgari Turkiston xalqlari qaysi dinda edi?
3. Turkistonning johiliyat zamo-nidan qolgan rasm va odatlaridan baʼzisi bugungi musulmonlarda ham bormi?
4. Islomiyatdan avval turkisto-nyilar qaysi tilda soʻylashardilar? Ularning umumiy tillari qaysi til edi? Adabiyotlari na holda edi? Darajayi madaniyalari na tariqa edi?
5. Islomiyatdan muqaddam umum turkistoniyalar jinsiyat yuzasi-dan qaysi millatga mansub edilar?
6. Hozirgi Turkiston musulmon-larining barchasi turkmi? (Yo bosh-qa, qay jinsdandir?)
7. Arablarning istilosidan beri



Hisao Komatsu, professor, jadidshunos olim (Yaponiya)

hozirgacha Turkiston musulmonlari necha podshohga tabaalik etmish-lar?

8. Amir Temurning ul qadar gʻalaba va jahongiriligiga nima sabab boʻldi? Va oxirda hukumatining munqariz boʻlib ketganiga sabab nadir?

9. Amir Temur davrida ulum va maorif va adabiyot na kayfiyatda edi?

10. Turk tarixida loziminchasi isti-foda etmoq uchun qaysi asarlarni mutolaa etmoq kerak?

Bu savollarga qaraganda Hoji Muin Turkiston tarixini eng eski zamondan boshlab yozishni taklif qilmoqdadir. Islomiyatdan avvalgi tarixga qiziqish esa Isʼhoqxon Toʻra lbratning “*Tarixi Fargʻona*” asarida ham paydo boʻlgan edi.

Ayni 1915-yilda “Turkiston vilo-yatining gazetasi”da bosh muharrir muovini sifatida ishlagan Mullo Olim Maxdum Hojining “*Tarixi Turkiston*” (Toshkent, 1915) nomli asari nashr qilindi. Bu asar xonliklar zamonidan qolgan voqeanoma uslubi bilan tayyorlangan, eng koʻp Qoʻqon xonligi, undan keyin Buxoro va Xiva xonliklarining siyosiy tarixi-dan bahs qiladi. Toshkentning Rusiya davlatiga taslimining ellik yilligiga bagʻishlangan bu asarda turkistonliklarning milliy hissiyotini topish juda qiyin. Hoji Muinlar orzu qilgan Turkiston tarixidan uzoq bu asar haqida professor E.Allvort shunday yozadi: “Jadidlar ularning zamondoshi boʻlgan bu tarixchi va uning asariga hech ahamiyat bermadi”.

Bundan keyin ham Turkiston tarixi yozma loyihasi davom etadi. Afsuski, bunga sovet repressiyasi katta toʻsiq boʻldi. Bu jarayondan chiqqan yagona asar Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻonga oid “*Bugungi Turkiston va yaqin moziysi*” (Misr, 1929–1939) boʻlsa kerak.

Bahodir KARIM tayyorladi.



(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Isak Baybekov – 1890-yili Simbirskiy guberniyasi Goryevka shahrida tugʻilgan. Millati tatar, maʼlumoti oʻrta. Mehnat faoliyati-ni 1909-yilda Fargʻona oblasti-dagi shirkatlarda paxta qabul qiluvchi, minterni yogʻlovchilik-dan boshlagan. Paxta navlarini oʻrgangan. 1914–1917-yillarda Chor armiyasida xizmat qilgan. 1918-yildan Большой Соёмон ijroiya volosti ijroiya komiteti yer boʻlimi mudiri boʻlib ishlagan.

1924-yili Buxoroga kelib, bir muddat maorif sohasida ter toʻkadi. 1926–1937-yillarda Jargoʻrgʻon, Sariosiyo, Jizzax, Jalolquduq rayonlarida ijroiya komiteti masʼul kotibi, rais oʻrinbosari, kooperatsiya soyuzi mudiri, savdo boʻlim mudiri lavozimlarida ishlagan. Oʻzbek, tojik, ozarbayjon, rus tilini yaxshi bilgan.

SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 4–15-oktyabrda yigʻilishlarida qatagʻon qilishning ikkinchi toifasi boʻyicha 70 mahbus ustidan hukm chiqarilgan. Ulardan biri Isak Shaxiyevich boʻlib, “Milliy istiqlo” tashkilotidagi faoliyati uchun 15 yilga qamalgan. 1990-yili 13-martda reabilitatsiya qilingan.

Hoshim Sattarov – 1904-yili Namangan shahrida, kambagʻal dehqon oilasida tugʻilgan. 1919-yil-da “Namuna” xalq maktabini, 1922-yili ishchilar fakultetini bitirgan. Oliy taʼlimni Moskvada olib, ichki kasalliklar boʻyicha shifokor maqomi-ga ega boʻladi. “Koʻmak” jamiyatining faol aʼzosi edi.

Faoliyati davomida yoshlar tash-kiloti xodimi (1920–1928), OʻzSSR Sogʻliqni saqlash xalq komissar-ligi kadrlar mudiri (1931-1932), Sogʻliqni saqlash xalq komissari oʻrinbosari (1932–1934) vazifalarida mehnat qilgan.

1935-yil 20-dekabrda Toshkentda Tibbiyot institutini tashkil etishdagi faol ishtiroki uchun qimmatbaho sovgʻalar bilan taqdirlangan.

Oradan bir yil oʻtmay, aniqrogʻi, 1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining yigʻilishida otuvga hukm etilgan. KPSS XX syezdidan keyin reabilitatsiya qilingan.

Toshkanboy Azizov – Namangan viloyati Olmos qishlogʻida 1904-yil tugʻilgan. Samarqand shahridagi 19-sonli Togʻ oʻtliq diviziyasi 19-oʻtliq artilleriya divizionida injener-texnik vazifasida ishlagan, leytenant, katta leytenant unvonlariga ega boʻlgan.

1937-yil 5-noyabrda qoʻzgʻalonchi, aksilinqilobiy tashkilotning faol aʼzosi boʻlganlikda ayblanib, hibsga olingan. Unga OʻzSSR Jinoyat Kodeksining 57-2, 67-moddalari boʻyicha jinoyat ishi ochilgan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 10-oktyabrda sayyor yigʻilishida 33 mahbus otuvga hukm etilgan. Otilganlar roʻyxatining sakkinchisi Azizov Toshkanboy boʻlgan.

Hakim Karimov – 1904-yili Toshkent shahrida tugʻilgan va shu joyda yashagan. Nazoratchi va savdogarning oʻgʻli, tugallanmagan oʻrta maʼlumotli.

“Xalq dushmanlari” bilan aloqada boʻlgani uchun ijtimoiy-siyosiy huquqlari cheklanadi. “Milliy istiqlo” tashkilot aʼzosi sifatida 1937-yil 21-noyabrda hibsga olinadi va 1938-yil 8-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi qarori bilan otuvga hukm etiladi.


H.Karimov 1957-yil 30-yanvarda oqlangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor

Azizbek Mahkamov, tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA, muzey ilmiy xodimasi.

(Davomi kelgusi sonda).



“**Millat uygʻonsin, koʻzini ochsin, oʻqisin, bilim olsin, madaniy millatlar qatoriga kirsin, soʻngra u ham oʻz davlati, oʻz baxti, oʻz saodatini quradi.**

Abdulhamid CHOʻLPON

TOPILMA

Ibrat bayori

Ilmiy jamoatchilik orasida bobomiz Isʼhoqxon toʻra lbrat asarlari va ularning adadi borasida turlicha qarashlar bor. Xususan, alloma merosini chuqur oʻrgangan Haydarbek Bobobekov “Ibrat sheʼriy devonidan tashqari, 14 ta tilshunoslik va ilmiy tarixiy asar yaratgan”, deydi. Boshqa olimlar Isʼhoqxon toʻra lbratning jami 20 ta asari topilganini aytishadi. Bizningcha, ular soni bundan ham koʻp.

Masalan, ulugʻ maʼrifatparvarning nomaʼlum asari – “Salovat-u Mubob” haqida bizda aniq maʼlumot bor-u hali-hanuz topilgani yoʻq. Bundan tashqari, bobomizning “Sitati Alti atsina” nomli 6 tili lugʻatidan bugungi yoshlar ham unumli foydalanishadi. Isʼhoqxon toʻra lbrat qalamiga mansub yana bir asar – “Mezon ul zamon” Yaponiyada nashr etilgan. “Jome ul xutut” asarida esa bobomiz dunyodagi 40 dan ortiq til haqida teran mulohazalar bildirgan. Boshqa maqola va sheʼriy toʻplamlari ham mavjud.

Bir soʻz bilan aytganda, allomaning ilmiy merosi batafsil oʻrganilmagan. Chunki Chor

Rossiyasi va Sovetlar davrida yozilgan asarlari bobomizning oʻz uyida, shaxsiy kutubxonasida saqlangan. 1937-yili qamoqqa olingan vaqtida ulugʻ maʼrifatparvarning uyi tintuv qilinib, barcha ilmiy asarlari Toʻraqoʻrgʻon meva-sabzavot quritish zavodi hududiga koʻmib tashlangan. Qolganlari yoqib yuborilgan. Shunga qaramay, dadam Sayyid Mullo Mehmonxoja Eshon (1909–1996) va ayam Istoraxon poshsha (1920–2006) lbrat bobomizning bir bayozini asrab qolishgan ekan. Bu bayoz to bugunga qadar uyimizda saqlab kelingan. Quyida shu haqdagi maʼlumotlarni siz bilan baham koʻrmoqchiman.

Isʼhoqxon toʻra lbrat qalamiga mansub bu bayoz 16 betdan iborat. Birinchi betida Isʼhoqxon toʻra lbrat bosmaxonasining ramzi – quyosh tasviri tushirilgan, hoshiyasiga arab alifbosi bilan “Ilm” va “lbrat” soʻzlari, uning tag qismiga esa, “Litografiya”, “Isʼhoqiya” deb yozilgan. Bayozning birinchi betidagi soʻzlar tarjimasida quyidagicha: “**Toʻraqoʻrgʻon qozisi lbrat asarining birinchi juziasi, Namangan Toʻraqoʻrgʻonda matbai Isoqiya.**

Saxvon arziga Muntashir UI – maduya bosli turgan avliyosi xar ofaridani”. Fors-

tojik tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilinganda, soʻnggi jumladan “**Asrlar kechishi matlab-u marhumdir**” degan mazmun kelib chiqadi.

Suratda keltirilgan bayozning 16-bet oxirida esa: “**Oxunzoda Abdurauf Mash-xadi yozgan, hijriy 1327-yil muharram oyi**”, deb yozilgan. Demak, lbrat devonining birinchi juziyasi deb taxmin qilinayotgan bu bayoz milodiy 1909-yilda yozilgan va lbrat bosmaxonasi noshiri Oxunzoda Abdurauf Mashhadiy tomonidan chop etilgan.

Bizningcha, bu – Haydarbek Bobobekov aytgan lbrat devonining birinchi juziyasi. Agar taxminimiz toʻgʻri boʻlsa, ushbu devon haqida aniqroq maʼlumotga ega olimlarimiz ham boʻlsa kerak. Bayoz topilishi bilan masalaga aniqlik kiritish maqsadida Toʻraqoʻrgʻon tumanidagi lbrat muzeyiga bordim. Muzey direktori bilan gaplashdim. Afsuski, muzeyda bu haqida hech qanday maʼlumot yoʻq ekan.

Topilgan yangi bayoz asosan nazmda, arab, fors, tojik va boshqa tillarda bitilgan. Nashr etilganiga 116 yil boʻlibdi. Kelgusida uni arab va fors-tojik tillaridan oʻzbek tiliga oʻgirib,



taqdim etamiz. Ishonamanki, bu asar Yangi Oʻzbekiston yoshlarini tarbiyalashda muhim qoʻllanma boʻlib xizmat qiladi. Soʻzimni ulugʻ bobomiz Isʼhoqxon toʻra lbratning quyidagi sheʼri bilan muhtasar qilaman:

Oʻqingiz ilmi hikmat, sizga bu ish katta ibratdir, Agar ilm oʻrganursiz barcha ishda sizga nusratdir. Agar ilmi oʻlmasa, nodon umri barcha kulfatdur, Bu ashoyi jadidi mubaddali asli hikmatdur.

Sayyid ISAXONTOʻRA SONIY (Isʼhoqxon toʻra lbratning nabirasi), Bobur nomli xalqaro jamoat fondi ilmiy xodimi



MUAMMO

INTERNET XUMORI

yoxud asalning ham ozi shirin



Bugun butun jamiyat, ayniqsa, yosh avlod qo'lida, o'ng-u so'lida telefon: real hayot qolib, virtual olamga sho'ng'ib ketgan. Ko'cha-ko'yg'a razm solsangiz, deyarli bir xil manzara: yurib borayotgani ham, o'rindiqqa cho'kkani ham, bozor rastasida xarid qilayotgani, mashinada ketayotgani, savdoda navbatda turgani, shifoxonada yotgani-yu, oshxonada luqмага qo'l cho'zayotgani... qay vaziyatda bo'lmasin, qo'lida telefon. Shunday, ko'plar internetdan ko'zini uzolmay qoldi. Er xotinini, xotin erini, ota-ona bolalarini, farzand esa ota-onani, bobo-buvilar nevaralarini "yo'qotib qo'ydi".

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yanvar holatida respublikamiz aholisining qariyb 90 foizi internetdan foydalanadi. Bu borada O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida peshqadam. Dunyo aholisining internetdan foydalanish darajasi esa 68 foizni tashkil qilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda bu "xuruji" o'tgan asrda avj pallasiga chiqib, bugun internet, ijtimoiy tarmoq, umuman, telefonga mukkasidan ketish deyarli kamaygan. Tadqiqot-so'rov natijalariga ko'ra, ularda 62,8 foiz odam internetga faqat zarur ma'lumotni olish uchun kirishini ta'kidlagan.

Shu o'rinda o'zim guvoh bo'lgan voqea esga keldi. Bundan ikki yil oldin xizmat yuzasidan Mo'ynoqqa bordik. Qaytar chog'i Nukus aeroportida parvoz vaqti biroz kechiktirildi. Chet ellik sayyohlar guruhi kelishi kerak ekan. Yarim soatga yetdi yo yetmadi, sakson chog'li sayyoh aeroportda ko'rindi. Kutish zalida hamma uchoq bortiga taklif qilinishini kutaypti. Shu payt biqinimdagi o'rindiqda o'tirgan bir sayyohning qo'l telefoni jiringlab qoldi. U darhol sumkasini ochib, tugmani bosar-bosmay gapni kalta qildi-da, telefonni sumkasiga zumda qayta joylab qo'ydi. O'shanda "Telefonini sumkasida olib yurar ekan, qanday yaxshi", degan o'y o'tgandi mendan. So'ng boshqa sayyohlarni ham sinchiklab kuzatdim – birotasining qo'lida telefon yo'q. Birovi jurnal tutgan, birovi kitob o'qib o'tiribdi yoki o'zaro samimiy suhbatda. Ana shundan so'ng o'zimiznikilarga zimdan ko'z yugurtirdim. Ishoning, hamma boshini quyi solib telefonga kirib ketgan.



Ko'zo'ngimda virtual hayot, realikdan uzoq son-sanoqsiz yengil-yelpi voqea-hodisalardan iborat poyonsiz kontentlar yoshlar tafakkurini haqiqiy hayotdan uzib, o'z yetovida ro'yo dunyosiga olib ketgandek. O'shanday sarob ta'sirida yurgan ayrim yosh avlod havoyi tuyg'ular, asoslanmagan tasavvur, xulosalar bilan yashamoqda. Bugun ana ular bilan suhbatlashish, hayotni, kelajakni sog'lom muhokama qilish mumkin bo'lmay qoldi: Siz yerdan gapirsangiz, u osmondan keladi.

Bundan yuz yil ilgari jadid bobolarimiz jamiyat ahvolidan qayg'urib, jumladan, farzandlarni o'qimishli qilish, maktablarni ochish, to'ylar, tantanalarni qisqartirish, ularga sarflanadigan mablag'larni farzandlar kamoli uchun yo'naltirish haqida salmoqli chiqishlar qilib, asarlar yozib, bu borada yuksak amaliy ishlarni bajarishgan.

Bugun xalqimizning internetga qaramligi shu darajada chuqurlashib ketdiki, uni bu vaziyatdan davlat siyosati darajasida qutqarib olish zarurati tug'ilmoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, bu hol har birimizdan jadidga aylanmog'imizni taqozo etadi. Chunki siz-u bizni real hayotdan chalg'ituvchi virtual dunyo shaxsni ruhan, ham aqlan o'tmaslashtirishi kamdek, bir-biriga qarama-qarshi axborot va

xulosalar beruvchi kontentning haddan tashqari ko'payib ketgani xotiraning susayishiga olib kelmoqda.

Har neda me'yori bor va me'yori bo'lgani yaxshi. "Asalning ham ozi shirin" deganlaridek, me'yordan ortiq "iste'mol", albatta, tana va ruh salomatligiga raxna soladi. Haddan ortiq berilib ketish "maniya" holatini vujudga keltiradi. Misol uchun, narkomaniya – giyohvand moddalarni iste'mol qilishga ruju qo'yish. Garchi qiyos noo'rindir, biroq nuqtayi nazarimiz dunyoning internetbozlik bilan bog'liq bugungi holatini "Internetomaniya" deb atashimizga imkon yaratadi. Internet xumori tom ma'noda narkomaniyaga o'xshash. U ham insonni giyohvand modda singari jismoniy, ruhiy, intellektual ojizlik iskanjasiga tashlaydi.

Ikkala "maniya"ning ham ta'siri bir xil. Giyohvand modda insonga yolg'on "baxt" kayfini va kayfiyatini beradi. Bora-bora inson unga ipsiz bog'lanib, qaramlik kuchayadi. Miyadagi neyronlar dofamin moddasini juda kam ishlab chiqarishga o'tadi, inson o'zini baxtsiz, kuchsiz, ojiz his qila boshlaydi.

Bugun yon-atrofimizda urchib ulguragan minglab "internetoman"larning holati shunday.

Chunki internetomaniyaning insonni o'ziga qaram qilish mexanizmi, millionlarni ta'siriga tortish omili dofamin bilan bog'liq. Ya'ni, inson internetda qanchalik ko'p vizual olam bilan birga bo'lsa, diqqatga, miyaga ta'sir etuvchi har xil narsalarni qancha ko'p ko'rsa, neyronlar tutashgan joylardan ajralib chiqadigan va "baxt" ruhiyatini beruvchi dofamin miqdori shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun inson zarra bo'sh qoldimi, ana o'sha baxtni axtargan ko'yi qo'li telefonga yugurib, ijtimoiy tarmoqlarni titkilay boshlaydi. Internetga kirmasa, shu kuni nimadir yo'qotgan, nimadir kamdek shaytonlab qoladiganlari ham bor, ko'ryapmiz. Bu holatda miyada, tanada dofamin miqdori kamaygan bo'ladi. Dofamin kamaydimi, demak, inson o'zini kemtik, "baxtsiz" his qila boshlaydi. Taassuf, ayrimlar dofamin jarligi yoqasida umr o'tkazmoqda.

Insonning eng katta boyligi – vaqt va ong. Bugungi kunda internet har birimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi: bilim olish, tajriba orttirish, dunyo bilan bog'lanish, o'zini rivojlantirish kabi yo'llar aynan u orqali osonlashdi. Biroq, afsuski, ushbu imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalanish o'rni, ko'p yoshlar virtual olamga haddan tashqari berilib ketib, o'z hayotining eng qimmatli ne'matlarini yo'qotish xavfiga duch kelmoqda.

Yoshlar, umuman, hammamiz anglab yetishimiz kerakki, internetning o'zi aybdor emas. Muhim omil biz undan qanday foydalanishimizda! Agar biz uni bilim izlash, til o'rganish, zamon talabiga mos ko'nikmalarni egallash, ilmiy izlanishlar olib borish va shaxsiy o'sish yo'lida ko'makdosh bilsak, internet biz uchun kelajakka qanot bo'ladi. Biroq unga ortiqcha berilib ketish ortidan maqsadlardan chalg'ish insonni ruhiy va jismoniy zaiflashtiradi. Shu bois har kim o'z vaqtini to'g'ri taqsimlay bilishi, har kunning ma'lum qismini bilim olish, yangi ko'nikmalar orttirish va shaxsiy rivojlanishga yo'naltirishi zarur. Internet vosita, maqsad emas. Uni to'g'ri yo'naltirganlar muvaffaqiyatga erishadi, bu mavzuda shunchaki "shataloq otib yurganlar" vaqtini havoga sovg'urani qoladi, xolos.

Mizrob BO'RONOV,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

TILBILIM



Tuya yildan qolsa ham, eldan qolmagan

Xalqimizda "yildan qolgan tuya" deya naql bor. Bu naql ishi unmaydigan, zarur ishlarga kechikib qoladigan, e'tibordan chetda turadigan odamlarga nisbatan qo'llanadi. Bu naqlning paydo bo'lishi qadimda yil nomlari hayvonlarga taqsim qilinayotganda, tuya tabdirga kechikib borganligi bilan bog'lanadi. Gap shundaki, jimitday bo'lgan sichqonning nomida muchal yili bor, lekin tog'day tuya bu nasibadan quruq qolgan. Shunday bo'lsa-da, tilimizda tuya bilan bog'liq atamalar ko'p. Bu jonivor yildan qolgan bo'lsa-da, eldan qolmagan, doimiy e'tiborda bo'lgan, shuning uchun uning oti ko'p.

"O'zbek xalq ijodiy yodgorliklari" kitobida bo'ra so'zi tuyani, kark so'zi esa, yovvoyi tuyani bildirgan, bir o'rkaqli tuya – nor, yirik gavdali

basavlat erkak tuya – lo'kcha so'zida ifodalangan. "At-tuhfa" lug'atida qari tuya – **sho'rhak** (sh'rhak), urg'ochi tuya – **moya** so'zida ma'nolangan.

Qadimgi tilimizda tuya so'zi teva shaklida bo'lgan. Keyin tuyaga o'zgargan. Tevaning ko'ngli kichikdur gar erur paykari cho'ng (Navoiy).

Tilimizda tuya bilan bog'liq bulardan boshqa atamalar ham ko'p. O'zbek tilida "Kambag'alni tuyening ustida ham it qopar", "Tuya hammomni orzu qilibdi", "Tuya ko'rdingmi, yo'q", "Nonini tuya qilgan", "Tuya go'shti yegan" kabi ko'plab maqol va iboralar yaratilgan. Tuyaqorin, tuyaqush, tuyadaraxt kabi o'simlik va hayvonlarga oid ramziy nomlar o'ylab topilgan. Arab tilida ham tuya zoti bilan bog'liq minglab istilohlar bor. Men bilganlarimni aytib o'tdim, xolos.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

TAJIRIBA QUYONI KIM?

Instagramda bir videoga ko'zim tushdi. Ko'rinishidan tuppa-tuzuk ayol uyqudagi yosh bolaning tepasida suv to'ldirilgan pufakni igna bilan qordi. Uch-to'rt yoshlardagi go'dak qattiq qo'rqib ketdi va chinqirib yubordi. Bola yig'lagani sari videoga olayotgan ham, uyg'otgan ayollar ham beo'xshov qahqaha uradi. Shu narsa 16 mingga "layk" olib, 18 mingdan ortiq izohga sabab bo'libdi.

Xo'sh, norasidaning sog'lig'i, psixologiyasi endi nima bo'ladi? Kuchli qo'rquv yillar o'tib ta'sir ko'rsatmasligiga kim kafolat beradi? Xudo ko'rsatmasin, nogiron bo'lib qolsa, to'plangan layklar dori bo'ladimi? E'tiroz bildirganlarga javobi ham bor ekan "balog'ir"larning: bu tajribaviy kontent. Nima, yosh bola tajriba quyoni senga? Bugun "layk"sirab qolgan odamlar

tobora bachkana, mantiqsiz va xavfli xatti-harakatlarga yo'l qo'ymoqda. Natijada biz ongimizni sirti yaltiroq, ichi qaltiroq axborot bilan to'ldiryapmiz. Aniqrog'i, miyamizni chiqindixonaga aylantiryapmiz.

Gap faqat kontent yaratuvchilarda emas. Ularning tegimoniga suv quyuvchilar siz bilan biz – "layk" bosib, izoh yozib, ko'rib, boshqalarga ulashayotgan auditoriya. Bu zanjir o'zaro bog'langan va har bir bo'g'in o'ziga xos javobgarlikka ega. Zanjirni uzish oson emas, ammo imkonsiz ham emas.

Ijtimoiy tarmoqlardagi barcha kontentni salbiy deb baholash adolatdan emas. Tanganing narigi tarafi ham bor. Bugun ijtimoiy tarmoq sahifalarida axloqiy, tarbiyaviy yo'nalishdagi materiallar soni ham borgan sari ortib bormoqda. Ayniqsa, tabiatni asrash, suv va havoga nisbatan mas'uliyat bilan yondashish g'oyalari yoshlar orasida tez ommalashyapti.

Odamlarga salbiy kontentlar qay darajada ta'sir o'tkazayotgan bo'lsa, dolzarb mavzulardagilari ham hayotda xuddi shunday rol o'ynamoqda.

Shu nuqtada milliy kontentning ahamiyati yanada ayonlashadi. Toki bugungi internet olamini o'zimizning kontent bilan boyitmas ekanmiz, yot g'oyalari bilan raqobatga kirishmas ekanmiz, yangi avlodni boy berib qo'yishimiz hech gap emas.

Buning uchun har kim islohn o'zidan, oila a'zolari va yaqinlaridan boshlashi kerak. Ota-onalar ham mediasavodxonligini oshirishi kerak. Buning uchun universitetda o'qish shart emas. O'sha internetda bu haqida ma'lumotlar yetarli. Nahotki, mediaolamdan har narsani topishga yetgan aqlimiz shunga kelganda oqsaydirmi?

V.HABIBULLAYEVA
Facebook

SARHISOB

“Jadid bobomga maktub” tanloviga ijodiy ishlarni qabul qilish yakunlandi

"Jadid" gazetasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamkorligida o'tkazilayotgan "Jadid bobomga maktub" ijodiy insho tanlovi yurtimizdagi maktab o'quvchilari o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi.

Viloyat nomi	Insho topshirganlar soni
Farg'ona	17 671
Navoiy	2 966
Sirdaryo	2 887
Samarqand	2 851
Namangan	2 041
Toshkent shahri	1 654
Surxondaryo	1 397

Tanlov uchun tashkil etilgan maxsus botga 100 mingga yaqin so'rov kelib tushdi. Shundan 37 ming 500 dan ziyod insho elektron tartibda yuborildi.

Ayni paytda barcha ishlar taniqli ijodkorlar va malakali pedagoglardan

iborat nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan atroflacha o'rganilmoqda.

Tanlov g'oliblari Mustaqillik bayrami arafasida e'lon qilinib, tantanalari ravishda taqdirlanadi.

Quyidagi jadvalda yakuniy ko'rsatkichlar bilan tanishishingiz mumkin:

Andijon	1 159
Buxoro	1 131
Qashqadaryo	969
Xorazm	820
Toshkent viloyati	712
Jizzax	509
Qoraqalpog'iston Respublikasi	469
Umumiy soni:	37 971



Jadid
adabiy, ilmiy va o'qish uchun ijtimoiy hushyor gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



"SHAHIDLILAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 100

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 447

Lotin yozuvida – 11 653

Media kuzatuvchilar – 94 236

Buyurtma: G – 840.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz